

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

MUXAMEDJONOVA L.P., MIRZAQULOV B.T.

SIYOSATSHUNOSLIK

**(O`QUV-USLUBIY
QO`LLANMA-2)**

B U X O R O - 2 0 0 8

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanmada siyosatshunoslik fanining asosiy mazmuni va tushunchalari bo`yicha ta`riflar, chizmalar va jadvallar berilgan. Unda siyosiy jarayonlar, hokimiyatning amal qilish tamoyillari, jamiyat siyosiy tizimi mohiyati, davlatning asosiy shakllari, ichki va tashqi siyosatning asosiy printsiplari hamda namoyon bo`lish shakllari bayon etilgan. O`quv-uslubiy qo`llanma oliy o`quv yurti talabalari va siyosat bilan shug`ullanuvchi mutaxassislar uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

Yusupova G.H. O`zbekiston Milliy Universiteti «Siyosatshunoslik» kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Aminov F.M. Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiyasi instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

«Ijtimoiy fanlar» kafedrasi yig`ilishida tavsiya qilingan
Majlis bayoni: ____son, 2008 yil ____iyun
Bux OO va YeSTI uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan
____sonli majlis bayoni, 2008 yil ____iyun

MUNDARIJA

<i>Kirish</i>	4
<i>Siyosatshunoslik fani, predmeti, ob`ekti va tuzilishi</i>	5
<i>Siyosiy prognozlash</i>	13
<i>Qiyosiy politologiya</i>	24
<i>Siyosat</i>	27
<i>Siyosiy qarashlar, g`oyalar va ta`limotlar tarixi</i>	34
<i>Jamiyatning siyosiy tizimi</i>	59
<i>Siyosiy jarayon</i>	69
<i>Siyosiy tartibotlar, siyosiy kontsepsiyalar va nazariyalar</i>	74
<i>Siyosiy hokimiyat</i>	95
<i>Davlat, davlat tuzilishi, davlat shakllari</i>	107
<i>Fuqarolik jamiyati</i>	130
<i>Siyosiy partiyalar, siyosiy manfaatlar</i>	134
<i>Siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura</i>	155
<i>Din</i>	171
<i>Siyosiy elita, siyosiy lider</i>	175
<i>Tashqi siyosat, jahon siyosati, siyosiy vaziyat</i>	186
<i>Millatlararo munosabatlar, milliy siyosat</i>	201
<i>Siyosiy konflikt (mojaro)</i>	208

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning oliy o`quv yurtlarida o`qitilayotgan politologiya fanidan yangi dasturlar, o`quv qo`llanmalari, darsliklar yaratish – eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Negaki, bu yo`nalishda chuqur o`zgarishlarni amalga oshirmay turib yoshlarning zamonaviy siyosiy dunyo qarashini shakllantirish, ularning intellektual kamolotga erishuvini ta`minlash mushkuldir.

Politologiyadan yangi dasturlar, o`quv qo`llanmalari, darsliklar yaratish yo`lida muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo`lsa-da, ularni qoniqarli deb bo`lmaydi. Bu fandan amaldagi dasturlar, o`quv qo`llanmalari hozirgi zamon talablariga to`liq javob bermaydi. Ular xalqimiz tafakkuriga yot, nosog`lom g`oyalar va qarashlar ta`siridan xoli emas. SHu boisdan ham politologiyadan yangi dasturlar, o`quv qo`llanmalari, darsliklarni yaratish o`ta dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning: «Ko`p asrlik tariximiz shuni ko`rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma`rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o`rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo`ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo`ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo`ladimi – ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta`sir kuchiga ega», deb ta`kidlashlari bejiz emas.

Politologiyadan yangi dasturlar, o`quv qo`llanmalari va darsliklar yaratish – o`ta murakkab va ko`p kqrrali vazifadir. U mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda siyosiy fanni o`qitish tajribasini hisobga olishni, buyuk mutafakkirlarning siyosiy g`oyalariga va bugungi kun siyosiy fanida erishilgan yutuqlarga, milliy istiqlol mafkurasi tamoyillariga tayanishni ko`zda tutadi.

Tavsiya etilayotgan ushbu o`quv-uslubiy qo`llanma yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda tuzilgan. Unda zamonaviy siyosiy fanning eng muhim ustuvor mavzulari hozirgi zamon talablari asosida ko`rib chiqilgan.

SIYOSATSHUNOSLIK FANI, PREDMETI, OB`EKTI VA TUZILISHI

Yaxlitlikdagi siyosiy hayot, uning asosiy tarkibiy qismlarini (ro`yobga chiqarish), o`zgarishlar tendentsiyalari va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan aloqalar politologiyaning predmeti hisoblanadi.

Mazkur fanning ob`ekti siyosat tadqiqotchilari oldida turgan aniq vazifalar bilan belgilanadi. Bunday vazifalarga siyosiy hayotning bevosita o`rganiladigan sohaslarini, masalan, siyosiy munosabatlar, siyosiy tizim, siyosiy madaniyat, siyosiy jarayonlarni va h.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, politologiya fani ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida muhim o`rin tutadi, hamda siyosatni o`rganishda o`ziga xos xususiyati, maqsad va vazifalari borligi bilan farq qiladi. Siyosat ilm-fanni qiziqtirib kelgan an`anaviy soha hisoblanadi. Politologiya tuzilishiga ko`ra, siyosat sohasidagi bilimlar tizimi sifatida quyidagi fanlarni o`z ichiga oladi:

- *siyosiy fikrlar tarixi* (siyosiy ta`limotlar tarixi). U turli tarixiy davrlarda mavjud bo`lgan siyosiy hayot va uning tarkibiy qismlari (birinchi navbatda davlat va huquq to`g`risida) to`g`risidagi tasavvurlar taraqqiyoti bosqichlarini o`rganadi;
- *siyosiy falsafa*. Politologiyaning tarkibiy qismi bo`lib, ijtimoiy munosabatlar tizimida siyosatning o`rni to`g`risidagi tasavvurlar va tadqiqotlar printsiplarini (qoidalarini) belgilaydi, u siyosiy fan kategoriyalari, tushunchalarini shakllantiradi;
- *siyosiy sotsiologiya*. empirik (hissiy idrok etish, tajriba). Ma`lumotlarni to`plash, umumlashtirish va tahlil etishga tayanadigan siyosiy bilimlarning ancha serqirra sohasi bo`lib, aniq siyosiy hodisalar va jarayonlarni o`rganish bilan shug`ullanadi. Hozirgi kunda real siyosatning oqilona, maqsadga muvofiq bazasi bo`lib xizmat qiladi, siyosiy maqsadlarga erishish taktikasini tanlash va vazifalarni qo`yishda siyosiy qarorlar qabul qilish va oldindan aytib berish uchun foydalaniladi;
- *siyosiy psixologiya*. U siyosiy hatti-harakatni va uning sabablarini, ayniqsa ommaviy shakllarda o`rganadi;
- *siyosiy antropologiya*. Uning ob`ekti – u yoki bu shaklda siyosiy faoliyat bilan shug`ullanuvchi insondir. U ijtimoiy hayotning bu sohasiga kishilarning kirib kelish shart-sharoitlarini tadqiq etadi, uni shaxsan siyosiy munosabatlarni o`rganishi qiziqtiradi, u insonning siyosatda “ishtirok etishi izlari”ni o`rnatishga harakat qiladi.

SIYOSATSHUNOSLIK

*Siyosat, uning doimiy harakatini, tub mohiyatini,
siyosiy institutlar, siyosiy jarayonlar texnologiyasini o`rganuvchi fan*

Siyosatshunoslikning asosiy tuzilishi

Predmet

Ob`ekt

Mazmun

*Kategoriyalar
(qonuniyatlar)*

Vazifalar


Usullar

Tamoyillar

Qonuniyatlar



SIYOSATSHUNOSLIKDA QO`LLANILADIGAN TUSHUNCHALAR



**SIYOSATSHUNOSLIK
NING ASOSIY
QONUNIYATLARI**

Siyosiy manfaatlar, siyosiy qarashlar, siyosiy nazariyalar tarkib topishi, funkcionallashuv va rivojlanish qonuniyatlari

Siyosiy hokimiyatning mazmuni, xarakterining o`zgarib borishi, funkcionallashuvi qonuniyatlarning shakllanish

Siyosiy jarayonlar funkcionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlari

POLITOLOGIYA FANI

*Siyosat,
jamiyatning
siyosiy hayoti*

Ob`ekti

*Funk-
ciyalari*

*Siyosiy hokimiyat tashkil
topishi, vazifalari va
o`zgarish qonuniyatlari*

Darajalari

Usullari

*Siyosiy partiyaning tarkib topishi, rivojlanishi,
boshqasi bilan almashinuvi qonuniyatlarini
o`rganuvchi siyosiy nazariya*

*Siyosiy jarayonlarni o`rganish, jamiyat
hayoti nazariyasini va uslubiyotini ishlab chiqish*

*Siyosiy institutlar, vaziyatlar va siyosiy
sub`ektlar faoliyatini
aniq tadqiq qilish*

Dialektika

Tizimli

Tarkibiy- funksional

Siyosiy xulq-atvor

Taqqoslash

Aniq-tarixiy yondashuv

Sotsiologiya


Madaniy

Huquqiy normalar


Siyosiy institutlar

Antologik

Boshqa umumilmiy metodlar va aniq sotsiologik tadqiqot usullari



HOZIRGI ZAMON SIYOSIY FANLAR EVOLYUTSIYASINING BOSQICHLARI



SIYOSIY PROGNOZLASH

Siyosiy prognoz (oldindan aytib berish)

Siyosatda harakat qiluvchi kuch va oqimlarning o`zaro harakatini baholashga, real faktlarni tahlil qilish va taqqoslash asosida amalga oshiriladigan, kelajakni oldindan ayta biladigan tushuncha politologiyada prognoz deb aytiladi. Prognozda u yoki bu voqeaning boshlanish imkoniyati ko`rsatiladi va uning ehtimolligiga (bo`lish-bo`lmasligiga) miqdoriy baho beriladi.

Hozirgi zamon siyosiy prognoz berishi tajribasi uning maqsad va yo`nalishlari, muddatlari, asoslari, instrumentlari bo`yicha turli-tumandir.

Siyosiy faoliyatning asosiy masalalarida mos ravishda prognozlar xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillarini ro`yobga chiqarishga qaratilgan bo`lishi mumkin; bo`lishi mumkin bo`lgan xalqaro ziddiyatlar evolyutsiyasini va kelib chiqishi mexanizmini bilish; saylov kampaniyalarining oqibatini oldindan aytib berish; u yoki bu mamlakatdagi asosiy siyosiy kuchlarning ta`sir ko`rsatish dinamikasini o`rnatish; u yoki bu mamlakatda siyosiy liderning ommabopligi darajasini va uning siyosiy vaziyatni o`zgartirishga ta`sirini aniqlash; u yoki bu siyosiy qarorning bo`lishi mumkin bo`lgan oqibatlarini tahlil qilish va b.

Muddatlarga qarab prognozlar qisqa muddatli (5 yilgacha), o`rtacha muddatli (5 yildan 15 yilgacha) va uzoq muddatli (30 yilgacha) bo`ladi. Tabiiyki, muddatlarning kattalashuvi munosabati bilan oldindan aytilayotgan voqea yoki jarayonning ehtimollik darajasi pasayadi.

Siyosiy prognoz berishning asoslari turfa: bu statistik axborotlarning turli xil ko`rinishlari, sotsiologik tadqiqot ma`lumotlari, ijtimoiy fikr savol-javoblari, ommaviy axborotvositalari materillari, razvedka ma`lumotlari, tarixiy, psixologik, iqtisodiy, etnografik tadqiqotlar, siyosiy jarayonlarning borishiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar to`g`risidagi barcha bilimlar.

Siyosiy prognoz berishning insrumenti o`ziga turli xil ko`rinishdagi anketalarni, mazkur so`rovlar orqali ijtimoiy fikrni baxolashning sifatli va miqdoriy metodlari, mualliflari siyosiy o`zgarishlar ritmlarini iqtisodiy, demokratik, fizik, biologik, geoximik jarayonlar bilan bog`lashga urinayotgan oldindan aytib berishning maxsus tizimlarini qamrab oladi.

Katta miqdordagi ma`lumotlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy hisoblash texnikasi, maxsus matematik apparat ishlatiladi, albatta bunda turli xil

informatsiyalarni umumlashtirishning vositasi sifatida ularning samaradorligi ravshan.

Siyosiy prognoz muzish o`zida harakatlarni bosqichma-bosqich tizimini namoyon etadi, ulardan quyidagilari ajratib ko`rsatiladi:

- siyosiy tizimga mos keluvchi strukturaviy tahlil, uning tarkibiy qismlarini ajratish, aloqalar xarakterini aniqlash, ular o`rtasidagi bog`liqni aniqlash;
- asosiy omillarni tanlash, miqdoriy ifodalash, ularning ahamiyatini taqqoslash;
- jarayonlar tizimida harakat qiluvchi asosiy tendentsiyalar, o`nalishlar taraqqiyotini ochib ko`rsatamiz;
- bu jarayonlarning eksrapolyatsiyasi (fikir bilan kelajakda davom etish);
- traektoriya (biron narsaning harakat yo`li)larnio`zarot harakatda tahlil etish;
- siyosiy tizim taraqqiyotining kompleks prognozini tuzish.

Siyosatda prognozlash metodlari

Siyosatda prognozlashda an`anaviy tarzda ekstrapolyatsiya metodi keng qo`llaniladi (u yoki bu haqiqiy siyosiy jarayonlarning kelajakda fikran davom etishi). Bu metodning qo`llanilishi shunga asoslanadiki, ko`pchilik siyosiy fenomenlar – aynan jarayonlar, ya`ni hodisalar vaqt bilan cho`ziladi va o`zining harakat traektoriyasiga ega bo`ladiki, uni faqat o`tgan va hozir bo`layotgan voqealar zanjirini bilish bilan aniqlash mumkin.

Siyosiy prognozlashda faol qo`llaniladigan metodlardan biri – analogiya metodi bo`lib, o`tmishda bo`lib o`tgan u yoki bu voqealar shartlarining o`xshashligi asosida kelajakdagi bo`lishi mumkin bo`lgan voqealar haqida xulosa qilishga imkon beradi. Ayrim siyosiy fenomenlar va voqealarni oldindan aytib berish uchun prognozlashda analogiya metodidan unumli foydalanish mumkin.

Stsenariylar metodi. U kelajakda ehtimoli bo`lgan voqealarni qandaydir bir mintaqa yoki butun dunyo uchun ta`riflashni nazarda tutadi. Uni eng avvalo, ziddiyatli vaziyatlar rivojlanishi kartinasini ta`riflash uchun, siyosiy qarorlarni tayyorlashda ishlatish mumkin. Stsenariylarni tuzish doim voqealar va ularning tarqalishi tendentsiyalarini baholash bilan bog`liq bo`ladi, baholashda, kim uni qilayotgan bo`lsa, o`sha tomondan fenomenga nisbatan sub`ektiv munosabatlar o`z ifodasini topadi. Shu boisdan ham aynan bir hodisani prognozlashga taalluqli bo`lgan stsenariylar bir nechta bo`lishi mumkin.

Tanlashni amalga oshirish, u yoki bu stsenariyni maqbul deb topish prognozlash faoliyatiga yana bir protsedurani – ekspert baholashini qo`shishni

talab qiladi. ekspert baholashi tegishli bilim va malakaga ega boʻlgan, prognozlanayotgan sohadagi konkret muammolar boʻyicha katta tajribaga ega boʻlgan, ularning shu sohadagi faoliyati koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilgan kishilar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

Modellashtirish metodi. Mazkur metod siyosiy tahlil qilishda va prognozlashda favqulodda foydali hisoblanadi. Bu metod asosida siyosiy munosabatlarning kelajakdagi holati obʼektning shartli obrazlarini tashkil etish yoʻli bilan aniqlanadi (shartli obrazlar – matematik formula, funktsiya, grafik, sxema, karta boʻlishi mumkin).

**KISHILARNI OLDINDAN AYTIB
BERISH BILAN SHUG`ULLANISHGA
UNDOVCHI SABABLAR**


*Kelajagini kishilar bilmaydigan
hodisalarning mavjudligi*

*Hodisalar rivojining istiqbolli
tendentsiyalari qarorlar qabul
qilish uchun muhim
ahamiyatga molikdir*

*O`tmish va hozirgi zamon
to`g`risidagi ma`lumotlar asosida
yangi bilimlarni loyihalash
imkoniyati*

*Kishilarning aql-zakovat yordamida
kelajakka kirishga urinishi*

SIYOSIY OLDINDAN AYTIB BERISH



OLDINDAN AYTIB BERISH JIHOZLARI

*Oldindan aytib berishning yuqori
sifatli bo`lishini ta`minlovchi
tashkiliy-texnik elementlar
tizimi*

*Prinsiplar – qoidalar
(rioya qilinishi oldindan aytib
berishning samaradorligini ta`minlovchi
talablar tizimi)*

*Usullar (qoidalarni amalga oshirish
uslublari)*

Asosiy elementlar

*Oldindan aytib berishni
amalga oshirish va ishlab chiqarishning
mantiqiy izchilligi*

*Oldindan aytib berishni amalga
oshirish vositalari*

SIYOSIY OLDINDAN AYTIB BERISH TAVSIFI

Ob`ektiv asoslar

*Materialistik
gnoseologiya
(dunyoni bilish)*

*Kelajak bugungi
kunda mujassam,
faqat imkoniyat
chegarasida*

*Jamiyat siyosiy
sohalarining tizimli
tuzilishi*

Bosh maqsad

*Qabul qilingan siyosiy
qarorlar samaradorligi va
natijaliligini oshirish*

Milliy vazifalar

*Voqealar rivojining
nomaqbul natijalaridan
qochish*

*Muqarrarlikka
moslashish*

*Maqbul (istalgan)
yo`nalishda aniq hodisaning
ehtimoliy rivojini
jadallashtirish*

SIYOSIY PROGNOZLASH (OLDINDAN BILISH)

Kelajakdagi siyosiy voqealar taraqqiyotining mumkin boʻlgan variantlari, muqobil yoʻllari va uni amalga oshirish muddatlari, shuningdek, hozirgi voqelik sharoitlarida amaliy faoliyat uchun aniq tavsiyalarni belgilab berish toʻgʻrisida ilmiy asoslangan fikrlarni ishlab chiqish jarayoni

Q oʻllash sohalari

Iqtisodiy – siyosiy

Ijtimoiy – siyosiy

Davlat – huquqiy

Siyosiy – mafkuraviy

Harbiy – siyosiy

Asosiy qoidalar (prinsiplar)

Tizimlilik

Kelishuvlilik

Uzluksizlik


Ishonuvchanlik

Muqobillik


Rentabellik

SIYOSIY OLDINDAN AYTIB BERISHNING ASOSIY USULLARI

Axborot (informatika) asosiy belgilari bo'yicha



Amalga oshirish apparati belgilari bo'yicha



SIYOSIY OLDINDAN BILISHNING FUNKSIONAL TAYINLANISHI

A s o s i y f u n k s i y a l a r

Me`yoriy

Oldindan bilish (prognoz)da doimo muayyan ko`rsatkichlar va me`yorlar mazmuni mavjud bo`ladi.

Oldindan bilishni amal-ga oshirishga imkon beradi.

Boshqaruv organini uning faoliyatidagi sub`ektivizm dan asrab qoladi.

Siyosiy ob`ekt haqidagi oldindan bilish axboroti tashkiliy boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun asoslardan biri bo`lib xizmat qiladi.

Yo`nalishli (orientatsiyali)

Boshqaruv sub`ekti tomonidan yanada real yo`nalishlar faoliyatini va qabul qilinayotgan axborotga saylanma yondashuvni aniqlashda ifodalanadi.

Ogohlantiruvchi

Oldindan bilish modelidan ob`ektning real va ehtimol chekinishi to`g`risida boshqaruv organini xabardor qiladi

Boshqariluvchi tizim va uni o`z vaqtida barqarorlash uchun choralar qabul qilishga e`tirozli ta`sir ko`rsatishning omillari va sabablarini tahlil etishga imkon beradi.

SIYOSIY OLDINDAN AYTIB BERISHNING ASOSIY BOSQICHLARI



QIYOSIY POLITOLOGIYA

Qiyosiy politologiya – siyosiy fikr yo`nalishlaridan biri bo`lib, siyosiy fanning maxsus qismi sifatida shakllangan, siyosiy bilimlar va tadqiqotlarning alohida sohasi hisoblanadi.

Eng umumiy ma`noda qiyosiy politologiyani siyosiy hodisalarga qiyosiy yondashuvini ifodalovchi politologiyaning usuli sifatida qarash mumkin.


Qiyosiy politologiya antik dunyoda Platon, Aristotel va boshqa mutafakkirlar tomonidan qo`llanilgan. Mazkur uslub(metod) bir xil tipdagi siyosiy hodisalarni, masalalar, siyosiy tizimlarni, siyosiy tartibotlarni, siyosiy partiyalar va harakatlarni, manfaatdor guruhlarni, saylov tizimini, bir xil funktsiyalarni amalga oshirishning turlicha usullarini umumiy va xususiy jihatlarini, xususiyatlarini, belgilarini yuzaga chiqarish, vazifalarni hal qilishning optimal yo`llarini yoki siyosiy tashkilotning yanada samaraliroq shakllarini izlab topish maqsadida taqqoslashtirishni mo`ljallaydi.

Qiyosiy uslubning qo`llanilishi tadqiqotchining dunyoqarashini kengaytiradi, boshqa xalqlar va mamlakatlar tajribalaridan unumli foydalanishga ko`maklashadi, begonalarning xatolarini o`rganishga imkon beradi va davlat qurulishida “velosiped ixtiro qilish “ zaruratidan xalos etadi. Davlat va jamiyatni isloh etish sharoitlarida bu uslubdan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Siyosiy politologiya o`zining nazariy usul va vositalari yordamida hokimiyat institutlarini, real siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil etishni amalga oshirishga ko`maklashadi. Turli jamiyatlarda hokimiyatning taqsim- lanishi hamma vaqt ham amaliy jihatdan siyosiy tadqiqotlarda taqqoslash ob`ekti bo`lib xizmat qiladi.

QIYOSIY POLITOLOGIYA. (KOMPARATIVISTIKA)

Boshqaruv va hokimiyat mexanizmlari samaradorligini oshiradigan, siyosiy tizimlar va omillar amal qilishining barqarorligi shartlarini, jamiyat ijtimoiy hayoti siyosiy sohalari rivojlanishi tendensiyalari va umumiy qonuniyatlarini keng faktik materiallar asosida umulashtiruvchi va qiyoslovchi politologiyaning maxsus qismi.



QIYOSIY POLITOLOGIYA VUJUDGA KELISHINING NAZARIY MANBALARI



D. Lerner. «Siyosiy tizimlarni qiyosiy tahlil etish. Dastlabki deklaratsiya» (1951-1952)
R. Makrids «Boshqaruv tizimini qiyosiy tadqiq etish» (1954)
R. Makrids «Siyosatni qiyosiy tadqiq etish» (1955)
G. Eksteyn, D.Ch.Apter «Qiyosiy politologiya: xrestomatiya» (1963)
R. Makrids, B.Braun «Qiyosiy politologiya: yozuvlar va ma`ruzalar» (1964)
Z.Bjezinskiy, S.Xontington «Siyosiy hokimiyat: AQSh / SSSR» (1964)

SIYOSAT

Siyosatning mohiyati va uning jamiyatdagi roli

Siyosat - uyushgan ijtimoiy guruxlarning va shaxslarning, kishilar ko'pchilik ommasining jamiyat hayotiga tegishli bo'lgan muammolarni hal qilishda davlat ishlarida ob'ektiv shartlashilgan va maqsadga yo'naltirilgan ishtirokidir.

Siyosatning tavsifiy jihatlari:

- xususiy va umumiylikning, shaxs manfaati va ijtimoiy yaxlitlikning aloqasi (guruhlar, mamlakatlar, insoniyat): biz faqatgina o'zimizning xususiy muammolarimizni emas, balki o'z shaxsiy manfaatlarimiz doirasidan tashqaridagi vazifalarni bajarish uchun siyosat dunyosiga chiqamiz, qaysikim bu muammolar bilan juda ko'plab boshqa odamlar ham shug'ullayotgan bo'ladi.
- har qanday siyosat turi davlatning amal qilishi va mavjudligi muammolarini hal qilish bilan bog'liqdir;
- kishilar ommasi ko'pchiligining manfaatlari va harakatlari bog'liqligi;
- hushyoriy tahlil zaruratini mo'ljallaydigan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat, siyosiy harakatlar tarkibiy qismlari va shartlari turli xilligini hisobga olinishi;
- hokimiyatchilik характери, majbur qilish layoqati, ko'pchilikning harakatlariga yo'naltirish berish uchun irodaviy ta'sir ko'rsatish.

SHuni ham e'tiborga olish lozimki, yuqorida qayd etilgan sifatlar alohida-alohida bo'lmasdan, bir-birini to'ldirib turadi: ya'ni siyosatning hokimiyatchilik xarakteri davlat mexanizmidan foydalanishni belgilab beradi; xususiy va umumiy manfaatlarni birlashtirishni amalga oshirish nazariy shaklda bo'lsa, nazariyani, dasturni amalga oshirish davlat mexanizmiga murojat etishni ko'zda tutadi.

Siyosatning ijtimoiy turmushdagi roli, uning funktsiyalari (vazifalari) bilan belgilanadi. Ularning orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- integratsiya, ijtimoiy hayotning barcha element (unsur)larini birlashtirish, jamiyat manfaatlari va umumiy maqsadlar uchun ijtimoiy resurslarni safarbar etish;
- ijtimoiy tabaqalanish ro'y bergan sharoitlarda umumiy erkinlikni, kishilarning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari va manfaatlar xilma-xilligini amalga oshirish;
- asosiy ijtimoiy qadriyatlarning avtoritar taqsimotini amalga oshirish.

Siyosatda maqsad va vositalar

Siyosat o'z tabiatiga ko'ra muayyan maqsadlarga erishish uchun tegishli vositalardan foydalanuvchi maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Siyosatda maqsad – bu ideal, xoxishiy natija bo'lib, buning uchun siyosiy faoliyat amalga oshiriladi.

Siyosatda maqsadlarni klassifikatsiya qilish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

1) ularning ahamiyatiga ko'ra: umumiy (yalpi farovonlikka erishish, yalpi tinchlikka erishish) va xususiy (xalq ishonchi hukumatini shakllantirish);

2) siyosatning mazmuniga ko'ra: ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ekologik, siyosiy-huquqiy va h. ;

3) navbatiga ko'ra: yaqinroq, oraliq, yanada uzoqroq, oxirgi (aniq siyosiy jarayon uchun) ;

4) siyosiy faoliyat sohasiga ko'ra: ichki (ichki davlat) va tashqi (xalqaro).

Siyosatda vositalar maqsadlarga erishish instrumentini, ideal intilishlarni real harakat va natijalarga aylanishini nazarda tutadi. Bu siyosat va hokimiyatni amalga oshirish, ularda jamiyat yoki qandaydir siyosiy kuchlar manfaatlari uchun foydalanish imkoniyatlarining yig'indisidir.


Ko'pincha siyosiy hayotda zabastovkalar, tashviqot kampaniyalari, qo'rolli harakatlar, ommaboplik va'dalari, siyosiy muxolifatni tanqid, odamlarni qo'rqitish, mitinglar, namoyishlar, saylovlar, referendumlar, ahloqiy va huquqiy me'yorlar, an'analar va boshqalardan foydalaniladi. Ular odatda qattiq (haddan tashqari), tezlik, zudlik bilan, oraliq bosqichlarda to'xtovsiz kutilgan natijani olish va yumshoq (mo'tadil), uning ishlatilishi natijasida ko'plab oraliq natijalarni beradi, ko'p vaqtni talab etadi, kuchli ziddiyatlarni keltirib chiqarmaydi.


Maqsadlar va vositalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik, o'ziga xos o'zaro harakat mavjud. Bir tomondan, maqsad ko'pincha foydalanilgan vositalarni belgilab beradi, ikkinchi tomondan, vositalar, erishilgan natijaga ta'sir etib, maqsadlarning real (aniq) yoki utopik (xayoliy) ligini aniqlaydi, uning asosiy parametrlarini tuzatadi, hattoki bugungi kunda erishib bo'lmaydigan ideallardan voz kechishgacha boradi.

Ammo siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun har qanday vosita ham maqbul bo'lavermaydi. Amalga oshirish, erishish noinsoniy harakatlar yordami bilan bo'ladigan maqsadlardan voz kechish kerak.


SIYOSAT

Katta ijtimoiy guruhlar (sinflar, millatlar, davlatlar) o`rtasidagi munosabatlar sohasidagi, ularning ijtimoiy ahamiyatga molik talablari va ehtiyojlarini ro`yobga chiqarish manfaatlarida siyosiy hokimiyatning o`rnatilishi va amal qilishi bo`yicha faoliyat







SIYOSAT IJTIMOIIY HAYOTNING BOSHQA SOHALARI BILAN O`ZARO MUNOSABATLARI



SIYOSATNING ASOSIY FUNKSIYALARI





SIYOSIY QARASHLAR, G`OYALAR VA TA`LIMOTLAR TARIXI

Antik davrning siyosiy tafakkuri

Siyosiy fikr Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda shiddatli siyosiy hayotni nazariy jihatdan umumlashtirish shakli sifatida rivojlandi. Polis demokratiyasi institutlarining amal qilishi, unda fuqarolarning faol ishtiroki, siyosiy qarama-qarshiliklarni hal qilish mexanizmining mavjudligi, jamiyatda birlikni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risidagi tassavurlarning borligi. Bunday g`oyalar, fikrlar hozirgacha ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan.

Buyuk grek faylasufi Platon (er.avv.427-347yy.) o`zining asarlarida (“Davlat”, “Siyosat”, “Qonunlar”) davlatning kelib chiqishi to`g`risida qiziqarli rivoyatlarni yaratdi: har bir kishi o`zining ehtiyojini yolg`izlikda qondira olmasligi va o`zgalarning yordamiga muhtojligi tufayli davlat kelib chiqqan.

U ideal davlat to`g`risidagi tasavvurni shakllantiradi, ya`ni real mavjud bo`lmagan va quyidagi xususiyatlardagi davlat:bu erda hokimiyat layoqatli kishilarga tegishli, ijtimoiy ierarxiya (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo`ysunish tartibi)ning mavjudligi hokimiyat vakolatlarining tengsizligida ifodalanadi; bunday davlatda siyosiy munosabatlar adolat printsiipiga bo`ysunadi, ya`ni Platoning fikricha, buning mazmuni - har kim belgilangan majburiyatni bajaradi va shuning uchun taqdirlanadi; iste`mol tengligi printsiipi sifatidagi “Kommunizm” yuqori sinflarda amalga oshiriladi va quyi sinflar oldida ular jipsligini saqlashning sharti bo`lib xizmat qiladi.

Platon o`zi yashagan davrda mavjud bo`lgan davlat tuzilishining real tiplariga tavsif beradi: timokratiya – shuhratparaslar hokimiyati; oligarxiya - ozchilikning ko`pchilik ustidan hukmronligi; demokratiya –ko`pchilikning hokimiyati (boylar va kambag`allar o`rtasidagi qarama –qarshilikni keskinlashuvini mazkur shaklning kamchiliklaridan biri sifatida e`tirof etadi); tiraniya – bir kishining hamma ustidan hukmronligi (Platonning e`tirof etishicha boshqaruvning yomonroq ko`rinishi).

Yana bir grek faylasufi Aristotel(er.av.384-322 yy.) o`zining “Siyosat”, “Afina politiyasi”, “Etika” kabi asarlarida siyosiy hayotning turli masalalarini tadqiq etadi. U davlat tuzulishi shakllarini to`g`ri (monarxiya, aristokratiya, politiya – bunda hokimiyat umumiy farovonlik yo`lida amalga oshiriladi) va noto`g`ri (tiraniya, oligarxiya, demokratiya – bunda hokimiyat mexanizmi kimlar hukmronlik qilsa, o`shalarning manfaatlariga bo`ysunadi)ga ajratadi. Aristokratiya

va demokratiya sifatlarini o`zida mujassamlashtirgan politiyani Aristotel davlat tuzulishining eng ma`qul tipi deb hisoblaydi.

Ijtimoiy silkinishlarning asosi sifatida mulkiy tengsizlikni ko`rsatar ekan, faylasuf siyosiy jarayonlarning ijtimoiy tomoniga diqqatini qaratadi.

Aristotel tomonidan “o`rta element(unsur)” nazariyasi yaratilgan bo`lib, unga ko`ra boy ham bo`lmagan, kambag`al ham bo`lmagan, o`zining jamiyatdagi o`rni va mustaqilligi, erkinligi bilan jamiyatni ijtimoiy silkinishlardan saqlab tura oladigan tabaqalar jamiyati ilgari suriladi. Bu g`oya hozirgi zamonda keng tarqalgan “o`rta sinf” nazariyasining asosini tashkil etadi.

Buyuk rim mutafakkiri, notiq, siyosiy arbob bo`lgan Mark Tulliy TSitseron (er.av.106-43 yy)ning ko`pgina g`oyalari ham bugungi kun uchun dol-zarb sanaladi.

Aristotelning izidan borib, u ham o`zida demokratiya va aristokratiya xususiyatlarini mujassamlashtirgan boshqaruv shaklini maqbul deb hisobladi. ”Saylanadigan lavozimlarga da`vogarlari uchun qisqacha qo`llanma” deb nomlangan asarida TSitseron hozirgi zamon siyosiy amaliyotida qo`llanishi lozim bo`lgan juda ko`p foydali maslahatlarini yozib qoldirgan.

SIYOSIY G`OYALARINING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Asosiy tarixiy davrlar	Ijtimoiy siyosiy ta`limotlarning o`ziga xos xarakterli jihatlari	Asosiy bilimlar va etuk mutaffakirlar
Qadimgi Sharq siyosiy ta`limotlari (Misr, Eron, Xitoy, Bobil, Hindiston)	Bu davrda siyosiy qarashlar mustaqil ilm sohasi bo`lib ajralib chiqmagan siyosiy hokimiyat va tuzum alohida nuqtai- nazardan kelib chiqib tushuntirgan	Hammurapi, Zardushtiylik, Konfusiy
Qadimgi Rim, Yunon siyosiy ta`limotlari	Sekin-astalik bilan siyosiy qarashning afsonaviy formalaridan ozod bo`lish, falsafiy bilimlarning mustaqil bir qismi sifatida bayon qilinganligi, davlat tuzilishi tahlili va uning boshqaruv tasnifini ishlab chiqish	Gomer, Salamon, Pifagor, Demokrit, Suqrot, Platon, Siseron
O`rta asr ijtimoiy-siyosiy ta`limotlari	Diniy bilimlarning kuchayishi natijasida ijtimoiy-siyosiy g`oyalarning rivojlanishi. Siyosiy hokimiyatning diniy nazariya bilan asoslanishi. Davlat siyosatida dinning roli	M.Avgustin, F.Akvinskiy
Uyg`onish va madaniy yuksalish davrlarida siyosiy ta`limotlar	Dinni siyosiy g`oyalardan ajralib chiqishi, siyosiy nazariyada insonparvarlik g`oyalarining rivojlanishi. Insonparvarlikka asoslangan demokratik qarashlar, jamiyatni inqilobiy o`zgartirish, erkinlik, tinchlik g`oyalarini ilgari surgan	Makiavelli, M.Lyuter, T. Mor, T. Kampanella, J. Boden, G.Gobbs
Yangi davrdagi siyosiy ta`limotlar	Liberal siyosiy mafkuraning shakllanishi. Hokimiyatning bo`linishi muqarrarligini asoslanishi: - huquqiy davlat tasnifi; - burjua demokratiyasini boshqaradigan mexanizm; - inson va fuqarolar huquqlari shakllanishi	Sh. Montesk`e, J.J.Russo, O.Kont

ABU NASR FOROBIYNING IJTIMOIIY-SIYOSIY QARASHLARI

873 y. FOROB. – 950 y. DAMASHQ

Asarlari – “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Baxt – saodatga erishuv yoʻllari haqida risola”, “Buyuk kishilarning naqlari”, “Fuqarolik siyosati”, “Qonunlar haqida kitob”.

Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi boʻlib jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalri haqidagi taʼlimotni ishlab chiqdi.

Oʻrta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini asoslab berdi

- □ “Haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, oʻzaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar – fozil shahardir”;
- “Davlatni idora etuvchi shaxs oʻzining fazilati va xulq odobi bilan ajralib turishi kerak”

Inson qadr-qimmatini kamsituvchi va oʻzga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqdi

Inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olish mumkinligini asoslab berdi

- Fozil shaharlar yuqori madaniyatli boʻladi. Unda yashaydigan xalq oʻzi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda toʻla erkinlik va teng huquqlik hukm suradi”;
- “Shaharlar insonlarning jamoa boʻlib uyushishini oliy shakli boʻlib, unda insoniy barkamol boʻlib etishishi uchun zaruriy sharoitlar boʻladi”;
- “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlangʻich asos – insoniylikdir”.

**NIZOMULMULKNING DAVLAT BOSHQARUVIGA OID QARASHLARI
(ABU ALI AL-HASAN IBN ALI IBN ISHOQ AT-TUSIY)
(1017 y. TUS – 1092 y. NAHOVAND)**

Saljuqiylar davlati arbobi. Saljuqiy shoh Alp Arslon, o`g`li Malikshoh saroyida vazir bo`lgan. Davlatni boshqarish ishlarini markazlashtirish siyosatini o`tkazgan. 1091 yila “Siyosatnoma” (“Siyar-ul-muluk”) asarini yozgan.

“Siyosatnoma” asarida

Asosiy g`oyasi

Davlat boshqaruviga oid qoida va qonunlar

Qozi va qozixona ishlari

Soqchi va posbonlar vazifalari

Pochta va razvedka ishlari

Soliq va xiroj masalalari

Boshqaruv usuli va vositalari

Qo`shin va sarbozlar faoliyati

Xizmatchi va shaxsiy sarbozlar vazifalari

Saroyning sarf-xarajatlari

Zakot va vaqf masalalari

- shoh va hokimlarni adlu insofga;
- sulh va muruvvatga;
- davlatni oqilona boshqarishga;
- qat`iy qoida va tartib o`rnatishga;
- amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo`lishga;
- mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta`minlash uchun harakat qilishga da`vat etishdir.

yoritib berilgan

ALISHER NAVOIY (1441-1501)
BUYUK O`ZBEK SHOIRI, MUTAFAKKIR, DAVLAT ARBOBI

Asarlari

«Xazoyin ul-maoniy»

*Inson bolasining
murakkab va yuksak
tafakkuri hamda
behisob tuyg`ulari
ifodalangan*

«Lison ut-tayr»

*Bosh g`oya, muammo
tasavvufdagi imon,
e`tiqod va ma`naviyat
masalalarini tahlil etishdan
iborat*

«Xamsa»

*Islom tafakkurining borliq
va tabiat, inson va jamiyat,
axloq va kamolot
haqidagi fikrlar ilgari
surilgan*

*“Tarixi muluki Ajam”
“Tarixi anbiyo va Hukamo”*

*Sulton Husayn Boyqaro davri
ijtimoiy-siyosiy tarixiga
baq`ishlangan*

«Vaqfiya»

*Sulton Husayn Boyqaro (XVasr)
davri davlat tizimi, davlat
boshqaruvi, bu boshqaruvda
Navoiyning o`rni, uning ijtimoiy-
siyosiy qarashlari, axloqiy fikrlari
yoritilgan*

«Mahbub ul-qulub»

*O`zi yashagan davrdagi har bir
tabaqa vakillarining yaxshi,
yomon ishlari, hayoti, axloqi va
vazifalari haqida pand-
nasihatlar berilgan*

**“Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo`q xalq g`amidin g`ami”**

**“Adolat bila elni qil bahramand
Ki, yahshig`a ketsun yomondin bazand”**

AHMAD DONISH (1826 - 1897)

Yozuvchi, rassom, hattot, olim, ma`rifatparvar. XIX asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining vujudga kelishida muhim o`rin tutgan.

1857, 1869, 1873-yillarda Buxoro amiri elchilarining mirzasi bo`lib, Rossiya (Petrburg)ga borgan.

“Navodir ul-vaqoe`” (“Nodir voqealar”, “Tarjimai ahvoli amironi Buxoro” (Buxoro amirlarining tarjimai hollari), “Manozur ul-kavokib” (“Sayyoralarning joylashishlari”), “Risolai dar nazmi tamaddun taovun” (Madaniyat va jamiyat tartibi” haqida risola

Podshoh bo`lish, xalq ustidan hukmronlik qilish hayot olamida eng ulug` ishlardandir. Shunday bo`lgach, bu xizmatni podshoh ilm va amal bilangina bajara oladi

Davlat boshqaruvi masalalari to`g`risidagi g`oyalari


Har bir hukmdor hokimiyatni boshqarishda fuqarolarga e`tiborli bo`lishi, har qanday muammoni hal qilishda avvalambor, o`zini oddiy fuqaro o`rniga qo`yib ko`rsin, shundagina u o`z vazifasiga xiyonat qilmagan hisoblanadi


Hukmdor faqat ibodat bilan mashg`ul bo`lmasdan, xalqning turmushi to`g`risida ham qayg`ursin. Unga murojaat qilgan har qanday fuqaroni, avvalo tinglab, hojatini chiqarsin, zero birovlarining hojatini chiqarish har qanday ibodatdan afzaldir


Hukmdorlar nafs balosidan o`zlarini tiysinlar, qimmatbaho kiyimlar kiyishdan o`zlarini saqlasinlar, aks holda hukmdor nafsga, ortiqcha hoyu-havasga ruju qo`ysa, u nafsini quliga aylanib, jamiyatga zarardan boshqa narsa keltirmaydi

Odamlar ustidan hukm chiqarishda, avvalo xalq taqdirini o`ylab, ular bilan muloqotda bosqlik bilan muloyim muomalada bo`lishlari lozim. Zero, qo`pollik, dag`allik, nopisandlik, har qanday hukmdorni jar yoqasiga olib borib qo`yishi muqarrar

Kishi o`z vatanini himoya qilsagina, o`z xalqi bilan birga bo`lsagina, u har doim barhayotdir.







JON STYUART MILL
(1806 - 1873)

*Ingliz faylasufi, iqtisodchisi
va davlat arbobi*

*Yangi zamonning liberal
g'oyalarini ifodalagan*

*Asosiy asarlari: "Vakillik boshqaruvi haqida" fikrlar
("Erkinlik to'g'risida")*

Asosiy qo'shilgan hissa

*Kelajakni
kooperator-ishlab
chiqaruvchilar
jamiyati sifatida
ta'riflagan, bunda
zararli oqibatlarsiz
xususiy mulk saqlab
qolinadi*

*"Individuum
mustaqilligi" g'oyasini
qo'llab-quvvatlagan*

***Davlatning ijobiy rolini
e'tirof etgan***

*O'z fuqarolarini ochiq ko'ngil va
ma'rifatli qilishga harakat qilish*

*Jamiyatni yalpi mental rivojlanishiga
ko'maklashish*

*Jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy va
intelektual (aqliy) boylikni
"tashkil etish"*

***Vakillikning proporsional tizimini
taklif etgan***

*Ko'pchilikni ozchilik ustidan hukmronligidan
qutilishiga izn beriladi*

Ikki holat tenglashtirildi

*Saylovchilarning
keng ishtiroki*

*Har kim bir
ovozga ega*

*Intellectual elita
siyosiy ta'sirining
saqlanishi*

*Bir necha saylov
okruglarida ovoz
berish tizimi*

FERDINAND PASSOL
(1825 - 1864)

*Nemis yozuvchisi, siyosatchi,
faylasuf, nemis ishchi
harakatining faol
namoyandasi*

*“Efeslik Geraklit
falsafasi”(1858)
“Orttirilgan huquq
tizimi” (1861)*

*Opportunizmning shakllaridan biri bo`lgan
lassalchilikni asoschisi, umumgerman ishchi
ittifoqini tashkil etishda muhim rol o`ynagan
(1863- 1875)*

Asosiy nazariya g`oyalari

*Fandan
sinfiy kurash
quroli
sifatida
foydala-
nishga
urindi*

*Tarixiy
taraqqiyotni
erkinlik
g`oyalarini asta-
sekin rivojlanish
sifatida talqin
etadi*

*Huquqni hu-
quqiy me`yor-
da kuchlar-
ning yuridik
amalga oshi-
shi sifatida
ta`riflanadi*

*Huquq xalq-
ning o`zini
anglashi, xalq
ruhining
ifodasidir*

*Sinfiy
kurash va
inqilobdan voz
kechdi*


*Butun
dehqonlar
ommasini
reaksion kuch
deb hisobladi*


Amaliy qo`shilgan hissa


*German ishchilar
sinfini Yevropa
ishchilar
qarakatidan ajratib
qo`yishga urindi*

*Mustaqil siyosiy
partiya tashkil
etishda nemis ishchi
harakatiga
boshchilik qildi*

*Asosiy maqsad:
yalpi saylov
huquqi uchun
tinch tashviqot
olib borish*







GEORGIY VALENTINOVICH PLEXANOV

Harbiy gimnaziyani tugatgan. Peterburg tog`konchilik institutini bitirgan. Ensiklopedik ma`lumotga ega olim, tarix, iqtisodiyot, sotsiologiya, siyosat, din sohasida tadqiqot olib borgan. Yorqin rus faylasufi va publisisti.

«Sotsializm va siyosiy kurash» (1883);
«Bizning iftixorlarimiz» (1885);
«Tarixga moniylik bilan qarashni rivojlantirish masalalariga doir» (1895)
«Materializm tarixi bo`yicha ocherk» (1896);
«Tarixda shaxsning roli to`g`risidagi masalaga doir» (1898).

Marksizm targ`ibotchilari va nazaryotchilaridan biri, rus va xalqaro sotsial-demokratik harakatining namoyandasi.

Asosiy qoidalar

Ijtimoiy taraqqiyotni tahlili uchun asos - Marksning dialektik materializmiga asoslanadigan siyosiy falasafa.

Ijtimoiy (sotsial) inqilobning qonuniyati to`g`risida xulosa chiqargan.

Xususiy tayyor bo`lmaslik.

Qishloq burjuaziyasi va oliy tabaqa qarama-qarshiligi.

Xalqni uning tashkiliy rejalariga beparvoligi.

Rossiya taraqqiyotining o`ziga xosligini rad etgan.

G`arbiy Yevropa mamlakatlari bosib o`tgan yo`ldan borishi kerak.

Uni mag`lubiyatga uchratish uchun hamma birlashishi lozim.

Kapitalistik rivojlanish yo`liga kirgan Rossiyaning iqtisodiy o`sishiga dehqonlar jamoasi va mutlaq monarxiya xalaqit beradi.

Rus inqilobiy harakatlarining turli yo`nalishlari bilan kurashda birlashish imkoniyati mavjudligini ko`rsatadi.

Mamlakatda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanmaganligi.

Fitnachilikka, yakobincha inqilobga va inqilobiy sotsialistik partiya tomonidan zudlik bilan hokimiyatni bosib olishga qarshi chiqadi.

Hokimiyatni zudlik bilan bosib olish g`oyasini yirik baxtsizlik deb hisobladi.

Bunday holatda «Rus sotsialistik partiyasining sharmandalarcha mag`lubiyati sodir bo`ladi».

U shunday tashkilot ishini qo`lga olishga majbur bo`ladiki, buning uchun unda na kuch, na shunday tushunish mavjud bo`ladi.

CHARLZ MERRIAM
(1874 - 1953)

Amerika siyosiy fanlarini va uning biheavioristik yo`nalishini asoschisi

“Siyosatning yangi aspekti” (1925) “Ovoz bermaslik: nazoratini sabablari va usullari” (1924)

Asosiy qo`shgan ulushi (hissasi)

Siyosiy jarayonlar ruhiy ko`rsatkichlarining katta ahamiyatliligi to`g`risidagi g`oyani targ`ib etdi.

Siyosiy tadqiqotlarga tahlilning yangi, shu jumladan miqdoriy usullarini tadbiq etishga faol harakat qildi.

Asosiy vazifa – siyosiy muammolarni tadqiq etishning shunday usullarini tanlash kerakki, ular muammolarni tushuntirishga va hal etishga ko`maklashsin.

Materialni statistik ishlash

Siyosatni tadqiq etishning hissiy (empirik) usullarini nazariy asosladi va qo`lladi.

Hujjatlarni o`rganish

So`rov

Kuzatuv


Siyosiy fanlarni amaliyot bilan, real hayot bilan aloqalarini mustahkamlashning zarurligini qat`iy turib isbotladi.


Ilmiy aylanmaga yangi, maxsus atamani kiritdi: “siyosiy oqilonalik” – siyosatchilarning o`z burchlariga yanada mas`uliyat bilan munosabatda bo`lishlari uchun


Amerikacha demokratiyani himoya qildi


Siyosiy boshqaruv shakli eng maqbul darajada insonning tabiiy tabiatiga mos keladi.

Insonning ijodiy imkoniyatlarini ochishga va yangi siyosiy munosabatlarni tipini o`rnatishga olib keladi









**XANA ARENDT
(1906 - 1975)**

Siyosatshunos, Kenigsberg shahrida yahudiy oilasida tugʻilgan. Natsizmning kuchayib borishi munosabati bilan avval Fransiya, keyin esa AQShga koʻchib oʻtgan.

Totalitarizm nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qoʻshgan.

«Totalitarizmning boshlanishi» (1951);
«Inqilob toʻgʻrisida» (1963)

Asosiy qoidalar

Natsizm va stalinizm-davlatning yangi zamonaviy shaklidir deb taʼkidlagan.

Totalitarizm mamlakatning ichkarisida va tashqarisida total hukmronlikka intiladi.

Totalitarizmning xarakterli jihatlari.

Yagona mafkura

Terror

Totalitarizmning paydo boʻlish sabablari.

Yahudiylarning oʻziga xos siyosiy va ijtimoiy holati antisemitizmni keltirib chiqaradi.

Oʻzining siyosiy hodisalar tahliliga yondashuvini «perilsiz tafakkur» deb atagan.

Siyosiy tajriba oddiy bilimni katta-lashtirish yoki nazariyani isbotlash-dan koʻra ancha muhimroq ekan-ligini koʻrsatishga harakat qilgan

Imperializm, jahonni bosib olishga daʼvogarlikni va irqchilik harakatni tugʻdiruvchidir.

Kishilarning qatʼiy yangi narsani yaratish qobiliyatiga alohida eʼtibor bergan.


Shuning bilan birga, fuqarolarning siyosatda erkin ishtiroki oldindan bilib boʻlmaydigan yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.



Yevropa jamiyatini kishilik jamiyatiga aylantirish, qaysikim ular yolgʻiz va qatʼiy yoʻnalishsiz ekan, ularni osongina mafkura yordamida safarbar etish mumkin.


Erkin siyosiy tizim nazariyasini yaratishga uringan.

Inqilobning haqiqiy, asl maqsadi - kishilarni siyosiy harakatlarga jalb etish, yangi siyosiy tizimni yaratish va uni abadiylashtirish.

Vakillik demokratiyasidan koʻra, yuzma-yuz turuvchi, fuqarolar tashkilotlari federatsiyasiga asoslangan tizim ancha maʼqulroqdir.







JAMIYATNING SIYOSIY TIZIMI

Jamiyatning siyosiy tizimi tushunchasi va tuzulishi

Jamiyatning siyosiy tizimi – bu huquq va boshqa meʼyorlar asosida yoʻlga qoʻyilgan institutlar majmui boʻlib, (davlat organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, jamoat birlashimalari va h.k.), uning doirasida jamiyatning siyosiy hayoti yotadi va siyosiy hokimiyat siyosiy tizim orqali amalga oshiriladi.

“Siyosiy tizim” tushunchasi siyosiy hokimiyatning qanday shakllanishini va amal qilishini, siyosiy jarayonlar qanday yoʻnalishda tartibga solinishini koʻrsatib beradi. Bu siyosiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmidir.

“Sistema” (tizim) tushunchasi politologiyada siyosiy qarorlarni qabul qilish va roʻyobga chiqarish jarayoniga u yoki bu darajada taʼsir qiluvchi barcha harakatlar va tuzilmalarni anglatadi.

Jamiyatning har qanday tizimi, jumladan siyosiy tizim ham koʻpchilik element (unsur)larning tartibga solinishini, yaxlitligini namoyon etadi, qaysikim ularning oʻzaro harakati yangi sifatlarni yaratadi. “Siyosiy sistema” (tizim) kategoriyasi millatlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar siyosiy manfaatlarini yanada oydinroq tushunishga imkon beradi.

Siyosiy tizim oxir oqibatda davlat hokimiyatidan foydalanish, unda ishtirok etish, uning uchun kurashish asosida ijtimoiy guruhlar oʻrtasida ishlab chiqarish va farovonlikni taqsimlashni tartibga soladi.

Siyosiy tizimning tuzilishi (strukturasi):

- davlatni, siyosiy partiyalar va harakatlarni, jamoat tashkilotlari va birlashmalarni, mehnat jamoalarini oʻzida mujassamlashtiruvchi jamiyatning siyosiy tashkiloti;
- siyosiy hokimiyat va siyosiy tizimning ruhiy va mafkuraviy tomonlarini tavsiflovchi siyosiy ong;
- jamiyat siyosiy hayotini va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy meʼyorlar;
- siyosiy hokimiyat sababi boʻyicha tizimning elementlari oʻrtasida joylashgan siyosiy munosabatlar;
- siyosiy faoliyat va siyosiy tajriba majmuidan tashkil topgan siyosiy amaliyot.

Siyosiy tizimning funktsiyalari (vazifalari).

Jamiyat siyosiy tizimining mohiyati, uning funktsiya (vazifa)larida yanada kengroq yoritilgan. Siyosiy tizimning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Mazkur jamiyatning ko`pchilik a`zolarini va muayyan ijtimoiy guruhlarini siyosiy hokimiyatini ta`minlash (hokimiyatchilik aniq shakl va metod (usul)lari siyosiy tizim tomonidan o`rnatiladi va amalga oshiriladi - demokratik va antidemokratik, zo`rlilik va zo`rsizlik);

2. Aholi ko`pchiligini yoki ayrim ijtimoiy guruhlar manfaatlarini yo`lida kishilarning hayot faoliyati turli sohalarini boshqarish, (boshqaruvchi sifatida siyosiy tizimning harakati o`z ichiga jamiyat taraqqiyoti yo`llari, vazifalari, maqsadlarini belgilashni, siyosiy institutlar faoliyatining aniq dsturini qamrab oladi);

3. Bu maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo`lgan resurs va vositalarni safarbar etish (ulkan tashkiliy ishlarsiz, kishilarsiz, moddiy va ma`naviy resurslarsiz qo`yilag ko`p vazifa va maqsadlarni amalga oshirish mumkin emas);

4. Siyosiy munosabatlarning turli sub`ektlari manfaatlarini ro`yobga chiqarish va vakillik (selektsiya – tanlash) siz, mazkur manfaatlarini siyosiy darajada aniq ta`riflash va ifodalashsiz hech qanday siyosat olib borish mumkin emas;

5. Siyosiy munosabatlarning turli sub`ektlari manfaatlarini aniq bir jamiyatning u yoki bu ideallariga mos keluvchi moddiy va ma`naviy qadriyatlarning taqsimlanish yo`li bilan qondirish (aynan kishilar turlicha jamoalar manfaatlarini taqsimlash sohasida to`qnashadi) ;

6. Jamiyatning integratsiyasi (yangilashuvi), uning tuzilmalari turli elementlarning o`zaro harakatda bo`lishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni yaratish (turlicha siyosiy kuchlarni birlashtirar ekan, siyosiy tizim jamiyatda yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga, ziddiyatlarni hal etishga, manfaatlar va intilishlarning to`qnashuvini oldini olishga harakat qiladi);

7. Siyosiy sotsiallasuv (ijtimoiylashuv). (Uning vositasida individning siyosiy ongi shakllanadi va u konkret siyosiy mexanizmlarning ishiga “kirishadi”, natijada jamiyatning barcha yangi a`zolarini tarbiyalash va ularni siyosiy faoliyatga jalb etish yo`li bilan siyosiy tizimning qayta ishlab chiqarishi sodir bo`ladi);

8. Siyosiy hokimiyatni e`tirof etish (muayyan darajada real siyosiy hayotni rasman siyosiy va huquqiy me`yorlarga mos kelishiga erishish).



JAMIYATNING SIYOSIY TIZIMI

Turli siyosiy institutlar, ijtimoiy – siyosiy birliklarni murakkab, tarmoqlashgan shakllari yig`indisi bo`lib, siyosiy hokimiyat ular o`rtasida o`zaro munosabatlar va o`zaro harakatlarda amalga oshiriladi.

Tizimli yondashuv


Strukturali-funksional yondashuv


Tashqi muhit



SIYOSIY TIZIMLARNING KLASSIFIKATSIYASI

Negizlar





JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING ME`YORLASHGAN TUZILMASI

*Jamiyat siyosiy hayotini belgilovchi va tartibga soluvchi
siyosiy me`yorlar, axloqiy prinsiplar
va an`analar*

Struktura

*Huquqiy
me`yorlar*

*Ijtimoiy
tashkilotlar faoliyati
me`yorlari*

*Yozilmagan
urf- odat,
an`analar*

*Xulq-odob
prinsiplari*


Konstitutsiya

Qonunlar

Me`yoriy aktlar

JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING MAFKURAVIY TUZILMASI


Jamiyat siyosiy hayoti qatnashchilarining mazmuniga ko`ra turlicha bo`lgan siyosiy g`oyalari, qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari yig`indisidir



JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING INSTITUTIONAL TUZILMASI


*Siyosiy hokimiyatning amal qilishi bilan bog`liq institutlar
(muassasalar, tashkilotlar) yig`indisi*

TUZILISHI



JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING KOMMUNIKATIV TUZILMASI

Siyosatni ishlab chiqish va hayotga joriy etish munosabati bilan siyosiy hokimiyatni amalga oshirish va rivojlantirishni tashkil etishda qatnashishlari bo'yicha sinflar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, individlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar va o'zaro harakatlar shakllarining yig'indisidir



JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING MADANIY TUZILMASI

*Siyosiy tizimning integratsiyallashtiruvchi omil, mavjud jamiyat uchun
tipik boʻlgan kompleks, siyosiy tasavvurlar va siyosiy xulq-atvorning
ildiz otgan (stereotip) namunalari*

T A ` M I N L A Y D I

*Jamiyat siyosiy
tizimi
barqarorligi*

*Aholi turli
qatlamlarining
birligi*

*Hukmron
elita siyosiy
hokimiyati
ijtimoiy
bazasining
mustahkam
ligi*

*Qabul
qilinadigan
siyosiy-boshqa-
ruv qarorlariga
aholi muno-
sabatini
oldindan bilish
imkoniyati*

*Kelishuv
asosida
jamiyat
siyosiy hayotini
qayta ishlab
chiqish*

SIYOSIY JARAYON

SIYOSIY JARAYON

Siyosiy voqealar va hodisalarning izchil, ichki bog`liqlikdagi zanjiri, shuningdek jamiyatda siyosiy hokimiyatni egallashga, ushlab turishga, mustaxkamlashga va foydalanishga yo`nalgan turli siyosiy sub`ektlar izchil harakatlarining yig`indisidir.

Asosiy bosqichlar

Boshqaruvchilik qarorlarini qabul qiluvchi institutga ijtimoiy guruh va qatlamlar siyosiy manfaatlarini vakil qilib yuborish.

Qarorlar qabul qilish va siyosiy irodani shakllantirish.


Siyosiy irodani amalga oshirish, ular boshqaruvchilik qarorlari shaklida ifodalangan bo`ladi.


Mavjudlik tartibotlari


Amal qilish

Rivojlanish


Tanazzul







SIYOSIY JARAYONDA SUB`EKT - OB`EKT MUNOSABATLARINING TUZILISHI



SIYOSIY TARTIBOTLAR, SIYOSIY KONTSEPTSIYALAR VA NAZARIYALAR

Siyosiy tartibot (rejim): tushuncha va belgilar.

Siyosiy tartibot – bu siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning vositalari, usullari va metodlari tizimidir. Mazkur tipdagi davlatning mohiyatida sodir bo`luvchi har qanday o`zgarishlar eng avvalo uning tartibotida aks etadi, u esa davlat tuzilishi shakliga va boshqaruv shakliga ta`sir etadi.

Ba`zi bir nuqtai-nazarga ko`ra, “siyosiy tartibot” va “davlat tartiboti” tushunchalarini bir xil ma`noda baholash mumkin.

Boshqa bir nuqtai-nazarga ko`ra, “siyosiy tartibot” tushunchasi “davlat tartiboti” tushunchasiga nisbatan kengroq ma`noni anglatadi, zero, u davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy hokimiyatning uslublari va usullarinigina emas, balki siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat birlashmalari, tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy hokimiyatning usul va metodlarini o`ziga singdirgan bo`ladi.

Siyosiy tartibot – bu siyosiy tizimning dinamik, vazifaviy (funktsional) tavsifidir. “Siyosiy tartibot” va “siyosiy tizim” kategoriyalari o`zaro bir-biri bilan yaqindan bog`liqdir. Birinchisi jamiyatning siyosiy hayotida va siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi institutlarning barcha majmuasini ko`rsatsa, ikkinchisi – bu hokimiyatning qanday amalga oshirilishini, mazkur institutlar qanday harakat qilishini (demokratikmi yoki nodemokratikmi) ko`rsatadi.

Siyosiy tartibot tushunchasi hokimiyatning asosiy tizimi to`g`risidagi tasavvurni shakllantirish uchun muhim sanaladi. Siyosiy tartibotdan kelib chiqib, jamiyat siyosiy tuzulishini tashkil etish printsiplarining haqiqiy manzarasi haqida fikr yuritiladi. Siyosiy tartibot o`z tarixiy taraqqiyotining aniq bir davrida u yoki bu mamlakatda mavjud bo`lgan asosiy siyosiy vaziyatni tavsiflaydi.

Siyosiy tartibotning belgilari:

- siyosiy hokimiyatni shakllantirish mexanizmlarida xalqning ishtirok etish darajasi, shuningdek bunday shakllantirishning uslublari;
- davlat huquqlari bilan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari nisbati;
- shaxs huquq va erkinligining kafolatlanganligi;
- jamiyatda hokimiyatni amalga oshirishning aniq (real) mexanizmlarini tavsifi;
- siyosiy hokimiyatni bevosita xalq tomonidan amalga oshirilishi darajasi;

- ommaviy axborot vositalarining ahvoli, jamiyatdagi oshkoralik darajasi va davlat apparatining ochiq-oydinligi;
- jamiyat siyosiy tizimida nodavlat tuzilmalarining o`rni va roli;
- hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari o`rtasidagi nisbat;
- mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy tartibga solishning xarakteri (rag`batlantiruvchi, cheklovchi) ;
- siyosiy hatti-harakatning tipi;
- siyosiy etakchilik (liderlik)ning xarakteri;
- siyosiy qarorlar qabul qilinishida ozchilik manfaatlarining hisobga olinishi;
- siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda muayyan metodlarning ustunligi (ishontirish, majburlov va hokazo) ;
- ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonun ustuvorligi darajasi;
- jamiyat va hokimiyat o`zaro munosabatlarining printsiplari (qoidalari);
- davlatning “kuch ishlatuvchi” tuzilmalarining jamiyatdagi roli hamda siyosiy va huquqiy holati (armiya, politsiya, davlat xavfsizlik xizmati);
- siyosiy ko`pfikrlilik, jumladan ko`ppartiyaviylik o`lchovi;
- mansabdor shaxslarni, shu jumladan eng oliy mansabdor shaxslarni siyosiy va huquqiy javobgarlikka tortishning aniq (real) mexanizmlarini mavjudligi.

Demak, “siyosiy tartibot” kategoriyasi, mazmunini tashkil etuvchi asosiy elementlar shulardan iborat.

Demokratik tartibot.

Davlat hokimiyatchiligining vositalari va metodlari to`plami xususiyatlariga bog`liq ravishda tartibotning ikki qutibi ajratib ko`rsatiladi – demokratik va antidemokratik.

“Demokratiya” tushunchasi, ma`lumki, xalq hokimiyatchiligi, xalq hokimiyati ma`nosini anglatadi. Biroq, butun xalq siyosiy hokimiyatni amalga oshirganligi bilan bog`liq vaziyat hanuzgacha biron bir erda ro`yobga chiqmagan. Albatta, bu orzu, ideal bo`lib, hamma shunga harakat qilishi kerak. Shuni ham qayd etish lozimki, bir qator davlatlarda bu yo`nalishda anchagina ishlar qilindi (Germaniya, Frantsiya, Shvetsiya, AQSH, Shveytsariya, Angliya) va boshqa davlatlar ham shunga intilmoqdalar.

Demokratik tartibot belgilari:

- aholining davlat hokimiyatini shakllantirish va amalga oshirishda to`g`ridan-to`g`ri (referendum) vosita va vakillik demokratiyasi (saylanadigan vakillik organi) orqali ishtirok etishi;

- ozchilik manfaatlari hisobga olingan holda ko`pchilik tomonidan qarorlarning qabul qilinishi;
- fuqarolik jamiyatining rivojlangan tuzilmasi bilan mavjudligi;
- huquqiy davlatni haqiqatda amalga oshirish;
- davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy organlarining saylanishi va almashtirilishi, ularning saylovchilar oldida hisobot berishi;
- davlat hokimiyatini e`tirof etilishi, tan olinishi;
- “kuch ishlatuvchi” tuzilmalar (qurolli kuchlar, politsiya, davlat xavfsizligi organi) jamiyatning demokratik nazorati ostida bo`ladi, faqatgina to`g`ridan-to`g`ri tayinlangan taqdirda foydalaniladi, ularning faoliyati qonunlar bilan tartibga solinadi;
- ishontirish, maslahatlashish, kelishish metodlarining ustunligi, kuch ishlatish, majburlash, chora ko`rish metodlarining qisib qo`yilishi;
- ijtimoiy hayotning hamma sohalarida qonunning hukmronlik qilishi;
- inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini e`lon qilinishi hamda real ta`minlanishi;
- xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va fuqarolarga nisbatan “qonunda taqiqlanmagan hamma narsani qilish mumkin” printsipining amal qilishi;
- siyosiy ko`pfikrlilik (plyuralizm), shu jumladan ko`ppartiyaviylik, siyosiy partiyalarning musobaqa qilishi, parlamentda va undan tashqari qonun asoslarida siyosiy muxolifat (oppozitsiya)ning mavjudligi (muxolifat muqobil dasturni ilgari suradi, sodir qilingan xatolar uchun hokimiyatni tanqid qiladi, o`zining matbuoti, parlamentdagi bloklar va fraktsiyalar orqali uni nazorat qiladi);
- oshkoralik, ommaviy axborot vositalarining tsenzuradan ozodligi;
- hokimiyatning bo`linishi printsipining amalda, ya`ni qonun chiqaruvchi (qonun qabul qilish, jamiyat taraqqiyoti strategiyasini shakllantirish), ijro etuvchi (qabul qilingan qonunlarni amalga oshirish, ularni turmushga tadbiq etish, davlatning kundalik siyosatini yurgizish), sud hokimiyatiga (ziddiyatlar chiqqanda, turli xil huquqbuzarliklar sodir etilganda hakamlilik qilish) bo`linishining mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, demokratik siyosiy tartibotning avtoritar va totalitar tartibotdan farq qiladigan juz`iy xususiyatlari shulardan iborat. YUqorida qayd etilganlarni bilish muhim ahamiyatga molik bo`lib, siyosiy hokimiyatni amalga

oshirishning vositalari, usullari va metodlari tizimini baholashda aniq yo'llantirishga yordam beradi.

Avtoritar tartibot.

Avtoritar tartibotni o'ziga xos ravishda totalitar va demokratik tartibot o'rtasidagi "kompromiss" ("kelishuv") sifatida qarab chiqish mumkin. Bu tartibot bir tomondan totalitarizmga nisbatan yumshoqroq, liberalroq bo'lsa, ikkinchi tomondan, demokratik tartibotga nisbatan qattiqroq, noxalqchilroqdir.

Avtoritar tartibot – jamiyatning davlat siyosiy tuzilishi bo'lib, unda xalqning minimal (eng kam) miqdorda ishtiroki asosida siyosiy hokimiyatning konkret shaxs (sinf, partiya, elita guruhi va h.) tomonidan amalga oshirilishidir. Mazkur tartibotning bosh tasnifini ijtimoiy munosabatlar turli xilligining, hokimiyatchilik va boshqaruvning metodi sifatidagi avtoritarizm tashkil etadi. (Ispaniya – Franko hukmronligi davrida, Chili – Pinochet hokimiyati davrida).

Avtoritar siyosiy tartibotning belgilari:

- bir vaqtning o'zida xalqning, davlat hokimiyatining real richaglaridan begonalashuvida, markaz va joylarda hokimiyatning o'zaro bog'liq bo'lgan bir yoki bir necha organlar qoshida markazlashuvi sodir bo'lishi;
- hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printipi nazarga olinmaydi (ko'pincha prezident, ijro etuvchi – farmoyish beruvchi organlar boshqa organlarni o'ziga bo'ysundirib oladi, qonunchilik va sud vakolatlari bo'lib olinadi) ;
- vakillik organlari mavjud bo'lsa-da, ularning roli hokimiyat sub'ekti tomonidan cheklangan;
- mohiyatan sud yordamchi organlar sifatida chiqadi, u bilan birga suddan tashqari organlardan ham foydalaniladi;
- mansabdor shaxslar va davlat organlarining saylanishi printsiplari, ularning aholi oldida hisobot berishi va nazorat ostida bo'lishining amal qilish sohasi qisib qo'yilgan yoki yoqqa chiqarilgan bo'ladi;
- davlat boshqaruvining metodlari sifatida buyruqbozlik, ma'muriylik hukmronlik qiladi, ayni vaqtda terror bo'lmaydi, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning ommaviy qatag'onlar, qattiq zo'rlik ishlatish usullari amalda qo'llanilmaydi;
- tsenzura qisman saqlanib qoladi, o'ziga xos "yarim oshkoralik" mavjud bo'ladi;
- yagona mafkuraning mavjud bo'lmasligi (totalitarizmdan farqli ravishda bu erda o'zlarining hatti-harakatlarini oliy maqsadlarga intilish deb oqlashmaydi);

- totalitar siyosiy tartibotda kuzatilganidek, ijtimoiy hayotning hamma sohalari ustidan to`la, yoppasiga nazorat qilishdan voz kechadi;
- qisman plyuralizm (ko`pfikrlilik) mavjud, muxolifatga yo`l qo`yilmaydi, ko`ppartiyaviylikka o`xshash holatga yo`l qo`yiladi, zero mavjud bo`lgan barcha partiyalar hukmron partiya tomonidan ishlab chiqilgan marraga qarab harakat qilish lozim, aks holda ular tarqatib yuboriladi;
- inson va fuqaroning huquq va erkinliklari hammadan avval e`lon qilinadi, ammo haqiqatda o`zining to`laligicha ta`minlanmaydi (eng avvalo siyosiy sohada);
- hokimiyat bilan o`zaro munosabatlarda shaxsning xavfsizligi kafolatlanmagan;
- “kuch ishlatuvchi” tuzilmalar amaliyotda jamiyatda nazorat ostida emas va ko`pincha faqat g`oyat siyosiy maqsadlarda foydalaniladi;
- lider (etakchi)ning roli yuqori darajada, lekin totalitarizmdan farqli ravishda, bu erda lider xarizmatik emas.

Totalitar tartibot.

“Totalitarizm” tushunchasi tom ma`noda “barcha”, “butun”, “to`la” deganidir. Har bir mamlakatda, qaerda siyosiy totalitar tartibot vujudga kelgan va rivojlangan bo`lsa, u o`zining xususiyatga ega bo`lgan. SHuning bilan birga, totalitarizmning barcha shakllari uchun umumiy bo`lgan jihatlarni va uning mohiyatini ochib beradigan umumiy xususiyatlar bor. Totalitarizm tartiboti jamiyat hayotining hamma sohalari ustidan davlatning mutlaq nazorati, insonning siyosiy hokimiyat va hukmron mafkuraga to`la bo`ysunishi bilan xarakterlanadi.

Totalitar siyosiy tartibotning belgilari:

- davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalari ustidan global hukmronlik qilishga, hamma narsani o`z ichiga oladigan hokimiyatga intiladi;
- jamiyat amalda siyosiy hokimiyatdan to`la begonalashgan (uzoqlashgan), lekin u buni his etmaydi, zero siyosiy ongda xalq va hokimiyatning “birligi”, “qo`shilib ketishi” to`g`risidagi tasavvurlar shakllantiriladi;
- iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari, madaniyat, din, shaxsiy hayot, kishilarning hatti-harakatlari sabablariga qadar, ularning ustidan davlatning tanho nazorati;
- ijtimoiy munosabatlarning tartib-qoidasi mutlaq “huquqiy”, to`g`rirog`i nohuquqiy bo`lib, ular “qonunda to`g`ridan-to`g`ri ruxsat etilgan narsalarni qilish mumkin” printsipiga asoslanadi;

- davlat hokimiyati byurokratik usul bilan, jamiyatdan yashirincha yo`llar bilan shakllanib, “sirli shuhrat” bilan o`ralgan va xalq tomonidan nazorat qilishning iloji yo`q;
- boshqaruvning zo`rlik, majburlov, terror kabi metodlari hukmronlik qiladi;
- bir partiyaning hukmronligi, haqiqatda esa davlat bilan professional apparatning birlashib ketishi, muxolif kayfiyatdagi kuchlarni ta`qiqlanishi;
- inson va fuqaroning huquq va erkinliklari deklarativ, rasmiy xarakterga ega bo`lib, ularni amalga oshirishning aniq kafolatlari mavjud emas;
- iqtisodiy asos sifatida yirik mulk maydonga chiqadi: jamoa mulki, monopolistik (barcha mulk o`z qo`lida) mulk, davlat mulki;
- yagona rasmiy mafkuraning mavjudligi, haqiqatda ko`pfikrlilikka yo`l qo`yilmaydi;
- markaziy davlat hokimiyati diktator (qattiq qo`l) va uning atrofdagilari qo`lida bo`ladi;
- qatag`on uyushtiruvchi davlat organlarining jamiyat tomonidan nazoratsizligi;
- fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning mavjud emasligi;
- davlat hokimiyati o`z-o`ziga, o`zboshimcha, ko`pchilikning fikrini hisobga olmasdan, demokratik mexanizmlar, me`yorlar va institutlarga qarama-qarshi ravishda amalga oshiriladi.

SIYOSIY REJIM

Mamlakatdagi siyosiy hayotning xarakterini belgilovchi, siyosiy erkinliklar darajasini va ular faoliyatining huquqiy asoslariga hokimiyat organlarining munosabatini ifodalovchi jamiyat siyosiy tizimining amal qilish usuli

Ta`minlaydi

Siyosiy hokimiyatning barqarorligi

Fuqarolarning boshqaruvchanligi, siyosiy munosabatlarning hokimiyat uchun maqbul dinamikasi va yo`nalishi

Manfaatlarni ro`yobga chiqarish, siyosatda hukmron elitaning maqsadlariga erishishi

Aniqlaydi

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning intensivligi va taraqqiyoti darajasi bilan


Hukmron elitaning strukturasi bilan

Byurokratiya (mansabdorlar apparati) bilan munosabatlarining holati bilan

Jamiyatdagi hukmron siyosiy ong va xulq-atvorning, ijtimoiy-siyosiy an`analarning rivojlanganligi bilan


Legitimlikning jamiyatdagi ustuvorligi bilan

SIYOSIY TARTIBOTLARNING KLASSIFIKATSIYASI



HOZIRGI ZAMON SIYOSIY KONTSEPTSIYALARI VA NAZARIYALARINING KLASSIFIKATSIYASI (TURKUMLASHTIRILISHI)

Klassifikatsiya (turkumlashtirish) uchun asoslar



LIBERALIZM

Shaxs erkinligini va individning boshqa fuqarolik va siyosiy huquqlarini hamda davlat faoliyati sohasini cheklashni e'lon qiluvchi ta'limot va ijtimoiy-siyosiy oqim

Asosiy qoidalar

Alohida individ jamiyat va uning institutlariga qaraganda har qanday jamoalashgan huquq va manfaatlardan muhimroqdir

Har bir kishining boshqa kishilardan farqi va o'ziga xosligi shak-shubhasiz va birinchi darajali, aloqalar va o'xshashlik esa shartli va ikkinchi darajali

Barcha qonunlar va qadriyatlarni insonning o'zi yaratadi

Inson o'z erki oldida individual tarzda ozod va mas'uldir

Asosiy siyosiy maqsadlar

Parlament tuzumi va an'anaviy parlament muolaja (prosedura)lariga moyillik

Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini o'sib borishiga noxush munosabat

Hokimiyat bo'linishining zarurati, siyosiy ko'pfikrlilik va qonun ustuvorligi


Fuqarolarning asosiy erkinlik va siyosiy huquqlarini ta'minlash, inson shaxsining qadr-qimmatini hurmat qilish


Plebeylik demokratiyasi amaliyotining kengayib borishi, qonunlarning umumxalq tomonidan muhokama qilinishi, mahalliy o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi

Elitarizm demokratiyasi mohiyatining asoslanishi, elitalar raqobatining zaruriyati


Muhim siyosiy muammolarni hal etishda kompromiss, konsensusga erishuv

INGLIZ LIBERALIZMI





NEMIS LIBERALIZMI



K O N S E R V A T I Z M

Davlat va ijtimoiy hayotning tarixan tarkib topgan shakllarini, ayniqsa uning oilada mujassamlashgan ustun qadriyatlarini, millatni, dinni, mulkni saqlashga va mustahkamlashga yo`naltirilgan g`oyaviy-siyosiy ta`limot va oqim

Асосий Asosiy qoidalar

Jamiyat bu – ildizlari uzoq tarixga borib yetadigan axloq, urf-odatlar, an`analar, institutlar tizimidir

Har qanday nazariy sxemadan ko`ra amaldagi institut ma`qulroq

Davlat avtoritetiga yo`nalganlik

Inson tabiatini baholashda pessimizm, inson aqliga munosabatda spektitsizm

Kishilar o`rtasida ijtimoiy tenglik imkoniyatiga ishonchsizlik

Xususiy mulk-shaxsiy erkinlik va ijtimoiy tartibning kafolatidir

Asosiy siyosiy g`oyalar


Individning ijtimoiy turmushini belgilovchi, an`analar, g`oyalar

Milliy ulug`lik g`oyasi

Siyosiy raqobat va ijtimoiy tengsizlik g`oyasi

Jamiyat hayotiga faol siyosiy faol aralashuvdan voz kechish xoyasi

Parlamentizmga va hokimiyatning saylanadigan institutlariga moyillik.



AVTORITARIZM

Siyosiy hokimiyat xalqning minimal ishtirokida (konkret) aniq shaxs (oila, siyosiy partiya, ijtimoiy sinf) tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy tartibot.

“Davlat – bu men” Lyudovik XIV

Tavsifiy jihatlar

Hokimiyatning siyosiy yetakchi, muayyan guruh qoʻlida toʻplanishi

Davlat ixtiyorida faqatgina jamiyat hayotining muhim va hal etuvchi rejalari boʻlishi

Ayrim fuqarolarning, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning siyosiy huquqlarini va siyosiy xulqini cheklash va qatʼiy belgilash

Yirik qatagʻon apparatining mavjud emasligi

Davlat taʼqiqlamagan barcha narsa fuqarolar uchun ruxsat etiladi

Demokratiyaning ayrim elementlarining mavjudligi (saylov, parlament kurashi)

Totalitarizmdan farqlari

Aniq ishlab chiqilgan yagona mafkuraning majburiy emasligi

Jamiyatga davlat taʼsiri koʻrsatilishi xarakterining, ijtimoiy jarayonlarni total tartibga solishning mavjud emasligi.

Fuqarolarning mustaqilligi va tashabbusini ragʻbatlantirish, xususiy hayotga aralashuvdan voz kechish

Kuch va manfaatlarni chegaralash, hattoki qutblashtirishga yoʻl berish

Iqtisodiyotga nisbatan siyosiy tizimning katta avtonomiyasi, uning markazlashgan, ham bozor koʻrinishini hisobga olish.



Siyosiy hokimiyatning bosh argumenti – kuch emas, balki avtoritet

TOTALITARIZM

Har bir inson va butun jamiyat hayotining turli tomonlari ustidan mutlaq (total) nazorat o`rnatishga intiluvchi siyosiy rejim (tartibot).

<i>Paydo bo`lishining sabablari</i>	<i>Shakllanish shartlari</i>	<i>O`rnatilish asoslari</i>
→ Inqilob	→ <i>Ijtimoiy strukturani keskin sindirish, turli ijtimoiy guruhlarini shakllantirish</i>	→ Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining paydo bo`lishi va ular iste`molchilarining shakllanishi
→ Harbiy mag`lubiyat	→ Siyosiy hokimiyatning inqirozi	→ Ijtimoiy-siyosiy va sotsial jarayonlarga qudratli ta`sir etish richaglari - ommaviy siyosiy partiyalarning vujudga kelishi
→ Ichki ziddiyatlar	→ Fuqarolik jamiyatning yemirilishi	→ Jamiyatni davlat tomonidan bosh-qarilish tajribasining yig`ilishi, ko`pmillionli kishilar ommasini safarbar etish yo`li bilan ijtimoiy muammolarni hal etish
→ Tashqaridan keltirish	→ Ijtimoiy ongning deformatsiyasi (buzilishi)	→ Qatagon (repressiya) va zo`ravonlikning tarmoqlashgan apparatini tashkil etish uchun imkoniyatning mavjudligi.

TOTALITARIZMNING SIYOSIY TARTIBOT SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI



MARKSIZM SIYOSIY-IJTIMOIIY DOKTRINA SIFATIDA

Tavsifiy xususiyatlari

*Gegel dialektikasining
materialistik ruhda tanqidiy
qayta ishlatilishi va uning
imkoniyatidan jamiyatning
siyosiy va davlat-huquqiy
muammolarini tahlil etishda
maksimal foydalanadi*

*Dialektika prinsiplari va
qonunlarini tafakkurdan
emas, balki ob`ektiv
borliqning o`zidan keltirib
chiqarish*

*Siyosiy va davlat huquqiy
hodisalarning mavjudligini
dialektik-materialistik
tarzda fikrladi*

*Davlat va huquq - o`ziga
xos bo`lgan va nisbatan
mustaqil munosabatlar
sifatida mavjud bo`lgan,
jamiyatning asosiy siyosiy
institutlaridir*

*Davlat byurokrtiyasini
tahlil etishga, uning
jamiyat hayotidagi o`rni va
rolini ko`rsatishga
yangicha yondashdi*

*U yalpi manfaatlarini
ifodalamaydi va aql-
idrokning davomchisi
hisoblanmaydi, bu siyosiy
beganalashuv shakllaridan
biridir*

*Siyosatni ijtimoiy
o`lchashning yangi
mezonlarini ishlab chiqdi
va bir qator inqiloblar
tajribasida sinovdan
o`tkazdi*

*Sinfiy
lik
mezoni*

*Iqtiso
diy
manfaat*

IJTIMOIIY REFORMIZM

Taraqqiyotning tadrijiyligi (evalyutsion)ga, demokratik sotsializmga va unga asta-sekin islohotlar yo`li bilan erishishga yo`naltirilgan ijtimoiy siyosiy ta`limot va oqim

Mafkuraning tavsifiy jihatlari

Ijtimoiy hayotni imperialistik talqin etish

Ijtimoiy hodisalarni tahlil etishga butun xalq, mehnatkashlar ommasi manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishi

Joriy va ohirgi maqsadlarning insonparvarlik xarakteri

Ijtimoiy jamoatchilik

Tarixiy ko`tarinkilik (optimizm)

Asosiy siyosiy xoyalar

Siyosiy hokimiyat shakli sifatida har qanday diktaturani rad etish

Demokratik parlamentarizm printsiplariga sodiqlik

Muhim muammolarni hal etishda siyosiy ko`pfikrlikka va konsensusga (ko`pchilikning bir qarorga kelishi, murosa qilish) tayanish

Qo`yilgan maqsadlarga erishishning tinch, demokratik vositalari ustuvorligi

Iktisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi va bozor mexanizmlarining rivojlantirilishi

Mehnatkashlar ommasini ijtimoiy himoyalash konsepsiyasiga sodiqlik

Turli xil davlatlarning tinch-totuv yashashi va ularning yetarlicha xavfsizligi yo`nalishi

HOZIRGI ZAMON CHET EL SIYOSIY FANLARINING ASOSIY MAKTABLARI

Ingliz- Amerika

*Siyosiy modernizatsiyalash,
barqarorlik. Siyosiy
mojarolar, tashqi siyosat
muammolarining ishlab
chiqishi*

Fransuz

*Siyosiy tartibotlar
tipologiyasi, legitimlik,
partiyaviy-siyosiy
infratuzilma muammolarini
o`rganish*

Nemis

*Siyosiy tizimlar, fuqarolik
jamiyati va huquqiy
davlatning amal qilishi
muammolarini qiyosiy tahlil
etish*

Polyak

*Siyosiy tizimni
demokratlashtirishning bosh
yo`nalishlarini, jamiyat
siyosiy hayotini konseptual
tadqiq etish*

ASOSIY VAKILLARI

*S.Lipset, K.Rayt,
S.Hantigton, G.Morgentau,
J.Sartari, R.Darendorf*

*M.Dyuverjea, J.Burdo,
M.Krozbe, R.Aron*

*G.Mayer, K.Fon Beyme,
I.Fitger*

*E.Vyatr, T.Bodio, A.Bodnar,
K.Opalek, F.Rishka*

SIYOSIY HOKIMIYAT

Siyosiy hokimiyatning mohiyati va xususiyatlari

Siyosiy hokimiyat - bu hokimiyatning jamiyatdagi alohida turidir. U jamiyat aʼzolarining ijtimoiy tabaqalashuvchi yuqori darajada boʻlganda va mehnat tashkiloti sharoitlarida amalga oshiriladi.

Siyosiy hokimiyatning belgilari:

- kishilarning bir guruhi maxsus vakillik davlat apparati orqali hokimiyat vakolatini ikkinchi guruhga vakil qilib yuborishi;
- oʻrnatilgan meʼyorlarni buzganlik uchun qoʻllaniladigan turli xil sanksiyalar tizimiga tayangan holda, uyushgan majburlov mexanizmidan foydalanish;
- qonunlar ijro etilishini kuzatib borish uchun hokimiyatning boshqa apparatlariga nisbatan yuqori darajadagi obroʻga va maʼlumotga ega boʻlgan kishilarning maxsus apparati mavjudligi.

Siyosat hokimiyatning zaruriy komponenti (tarkibiy qismi) - davlat hisoblanib, u oʻzining bir qator atributlariga egadir: oʻz aholisining mavjudligi (fuqarolariga ega boʻlish); davlatning oʻz hukmronligini joriy etadigan hududning mavjudligi; majburlash mexanizmining mavjudligi; bu majburlashni uyushgan shaklda amalga oshiruvchi kishilar. Davlat - bu jamiyatda qonunlar ishlab chiqarishga boʻlgan huquqni tanho egallab olgan tashkiliy zoʻrlik instrumentidir. Uning ahamiyatini oshirish ham, kamaytirish ham kerak emas. Rus faylasufi V.S.Solovyevning eʼtirof etishicha, “davlat erdagi hayotning uzil-kesil doʻzaxga aylanishiga xalaqit berish uchun emas, balki erdagi hayotni jannatga aylantirish uchun mavjuddir.”

Siyosiy hayot, davlat hayoti haqiqatdan ham doimiy ravishda bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan ikki qutb oʻrtasida ikkilanib turadi: davlatning ijtimoiy hayotga aralashmasligi va uning ustidan toʻla nazorat qilish. Hokimiyatning mavjudligida ijtimoiy tartiblilikning qudratli ijtimoiy omili sifatida, hokimiyatsizlikda esa, ijtimoiy tizimning oʻz-oʻzidan buzulishi va qayta tashkil etilishining koʻrinib turgan xavfi sifatida namoyon boʻladi. SHu erda bir narsani unutmaslik kerakki, har qanday hokimiyat ham boshqaruv va ijtimoiy farovonlik omili hisoblanmaydi. Hokimiyatdan foydalanish samarasi maʼlum darajada uning ijtimoiy mazmuni bilan belgilanadi – ham boshqariluvchilar, ham boshqaruvchilar manfaatlariga muvofiq tarzda yoinki zid holatda harakat qilish layoqati; shunday qilib boshqaruv samarasi oʻzining ijtimoiy mohiyatiga bogʻliq holda boʻladi.

Siyosiy hokimiyat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, boshqaruv ehtiyojlarini amalga oshirishda shakllanadi va vujudga keladi. U insoniyat hamjamiyatining tuzilishi va mustahkamlanishi, ziddiyatlar va qarama-qarshi manfaatlar tugʻdiradigan farqlarni olib tashlashning majburiy shakli sifatida harakat qiladi. Siyosat sohasida turli manfaatlarning doimiy kurashi boʻlib turadi, shuning uchun ham boshqa kuchlar va kishilarning qarshiligini bartaraf etish zarurati mavjuddir va siyosiy hokimiyat majburlov shaklida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy boshqaruvning instrumenti sifatida siyosiy hokimiyatning funktsiyalari:

- ijtimoiy yaxlitlik (butunlik) ni saqlash;
- ijtimoiy guruhlarining hokimiyat funktsiyalarini amalga oshiruvchi manfaatlar va ehtiyojlarni yuzaga chiqarish;
- ijtimoiy organizmni bir xilda amal qilinishini qoʻllab-quvvatlab turish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Siyosiy hokimiyat ijtimoiy turmushning turli soha, tomon (jihat)lari mushtarakligini shunday taʼminlashi lozimki, u haqiqatdan ularni toʻldirib turishi, bir-birining mavjudligiga putur etkazmasligi kerak;
- jamiyat uchun zarur boʻlgan ishlab chiqarish va isteʼmol oʻrtasidagi muvozanatni qoʻllab-quvvatlashi, bu qoʻllab-quvvatlash shunday mutanosiblikda boʻlishi kerakki, ular bir-birlariga toʻsqinlik qilmasin, balki bir-birini rivojlanishini ragʻbatlantirsin.

Siyosiy hokimiyat funktsiyalaridagi uzilish va ularni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimini zaiflashtirishi hamda beqarorlashtirishi, jamiyatni ijtimoiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Jamiyatda oʻzaro harakat qiluvchi manfaatlardan davlatning maʼlum darajada avtonom boʻlishi siyosiy hokimiyat funktsiyalarini birga olib borishni taʼminlashning eng qulay sharti boʻlib xizmat qiladi. Agar siyosiy va iqtisodiy jihatdan hukmronlik qiluvchi ijtimoiy guruhlarining manfaatlari bilan ziddiyat vujudga kelganda, davlat manfaatlari ustun boʻlganda siyosiy hokimiyatga erishiladi.

SIYOSIY HOKIMIYAT

Bu kimnidir, nimanidir tasarruf etish layoqati, huquqi yoki imkoniyati; turli hil vositalar - huquq, obro`, erk, majburlov yondashuvida kishilarning faoliyati yoki yurish-turishiga, taqdiriga hal qiluvchi ta`sir ko`rsatish


Tavsifiy belgilar

- *Hokimiyat irodasining ustuvorligi*
- *Boshqaruvning o`ziga xos apparati mavjudligi*
- *Boshqa davlatlarga munosabat bo`yicha hokimiyat organlarining suvereniteti*
- *Jamiyat hayotini cheklash (reglamentatsiya) monopoliya*
- *Jamiyat va shaxs munosabatida majburlov imkoniyati*

Manbalar

- *Kuch*
- *Boylik*
- *Jamiyatda egallangan mavqe*
- *Tashkilot*
- *Bilim va informatsiya*

HOKIMIYAT SIYOSIY HODISA SIFATIDA



SIYOSIY HOKIMIYAT

Asosiy prinsiplar

Legitimlilik

Harakatlilik

Reallik

Hushyorlik

Kollegiyalilik

Bardoshlilik

O`z-o`zini tanqid

Qat`iylilik

Yopiqlilik

Funksiyalar


*Jamiyatni boshqarish strategiyasini
ishlab chiqish*

*Jamiyatni rivojlantirishning asosiy
yo`nalishlari bo`yicha konkret
qarorlar ishlab chiqish va qabul
qilish*

*Ijtimoiy jarayonlarni operativ
boshqarish va tartibga solish*

*Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi
yo`naltirilganligini muhim
ko`rsatkichlar bilan nazorat qilish.*

SIYOSIY HOKIMIYATNING LEGITIMLIGI



SIYOSIY HOKIMIYATNING TIPLARI VA ULARNING TAVSIFI

Totalitar

Avtoritar

Demokratik

HOKIMIYATNI AMALGA OSHIRISH XARAKTERI VA CHORALARI

*Yalpi chegara,
bilmas nazorat
va zo`rlik*

*Nazoratga
yo`l bermaydigan
aniqlovlar*

*Hokimiyat qonunga muvofiq
saylangan fuqarolarning vakillari
orqali amalga oshiriladi*

KISHILARNING HOKIMIYATGA MUNOSABATI

*Hokimiyat
bilan
qo`shilish*

*Oddiy fuqarolarning
hokimiyatdan
begonalashuvi*

*Hokimiyatni
aniq amalga oshiruvchilarni
saylash*

HOKIMIYAT TA`QIQLARINING XARAKTERI

*Hokimiyat buyruq bergan narsaga
ruxsat, qolganlari
ta`qiqlanadi*

*Siyosatga tegishli
bo`lganlarga ruxsat
etiladi*

*Qonun bilan ta`qiqlanmagan
narsalarga ruxsat beriladi, jamiyat
manfaatlari va axloqiy normalariga
mos keladi*

HOKIMIYAT (SIYOSAT)NING SUB`EKT LARI

Siyosiy hayotning qatnashchilari bo`lib, ular tomonidan anglab etilgan ehtiyojlar va manfaatlar siyosiy hokimiyatning amalga oshirishga real ta`sir etadi va uni amalga oshirishni hamda mablag` bilan ta`minlashni belgilaydi

TURLARI

Bevosita ishtirokchilar: davlat, partiyalar, siyosiy yetakchilar va elitalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar

Bevosita qatnashuvda ishtirokchilar: yirik ijtimoiy guruhlar va birliklar, manfaatlarining turli guruhlari

*Faoliyatning harakatlantiruvchi kuchi – **ijtimoiy manfaat***

Bu siyosat sub`ektining siyosat vositalari va imkoniyatlaridan foydalangan holda, o`zining turmush sharoitlarini, o`zining ijtimoiy ahvolini saqlab turish yoki yaxshilashga ehtiyoji va intilishi

HOKIMIYAT RESURLARI

Shunday vositalar yig'indisikim, ulardan foydalanish sub`ekt maqsadlari bilan mos ravishda hokimiyat ob`ektiga ta`sir ko`rsatishni ta`minlaydi.

IQTISODIY

Ijtimoiy ishlab chiqarish va ehtiyoj uchun zarur bo`lgan moddiy qadriyatlar, pullar, hosildor erlar, foydali qazilmalar

(ZO`RLIK) KUCHLAR

Jismoniy majburlov quroli va apparati, buning uchun maxsus tayyorlangan odamlar

IJTIMOIIY

Ijtimoiy maqom yoki mansabni ko`tarish (yoki tushirish) layoqati, ijtimoiy strukturadagi o`rni

INFORMATSION


Bilish va informatsiya, shuningdek, ularni olish va tarqatish vositalari

SIYOSIY –HUQUQIY

Konstitutsiya, qonunlar, siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlari

DEMOGRAFIK

Inson boshqa resurslarni tashkil etuvchi universal resurslar



DEMOKRATIK SIYOSIY TASHKILOT

Hokimiyatning manbai sifatida xalqning tan olinishiga asoslangan jamiyat siyosiy tizimining amal qilish usuli bo`lib, xalq davlat va jamiyatning ishlarini hal etishda qatnashish huquqiga ega, fuqarolarga etarli darajada keng qamrovli huquqiga ega erkinliklar beriladi.

Tavsifiy jihatlar

Yalpi, teng va to`g`ri saylovlar, yashirin ovoz berish yo`li bilan davlat hokimiyatining vakillik organlarini va mahalliy o`z-o`zini boshqarish organlarining saylanishi

Parlamentda istisnosiz huquqni-umumdavlat qonunlarini e`lon qilish huquqi mavjudligi

Hokimiyatning qonunchilik, ijroiya va sud bo`linishi, ular o`rtasidagi munosabatlarda jilovlash va qarshi turish mexanizmining qarshiligi

Konstitutsiya doirasida harakat qiluvchi, ham mavjud tizimni qo`llab-quvvatlovchi, ham uni rad etuvchi partiyalar tizimida siyosiy partiyalarning mavjudligi, ko`p partiyaviylik

Ozchilik manfaatlarini hurmat qilgan holda, ko`pchilik tomonidan siyosiy qarorlarning qabul qilinishi

Siyosiy partiyalarda bevosita ommaviy hokimiyat munosabatlarining yo`qligi

Amal qilish kafolati

Davlat organlari va apparati faoliyatini fuqarolik jamiyati tomonidan nazorat qilish tizimining yaratilishi


Hokimiyatga egalik qilish bilan bog`liq bo`lgan imtiyozlarning tugatilishi

Fuqarolarni o`z vaqtida to`la siyosiy axborotlardan voqif etish imkoniyatining mavjudligi

Deputatlarni chaqirib olish va mansabdorlarni almashtirish muolajasini ixchamlashtirish

Fuqarolar teng huquqliligini kafolatlash, har bir kishining hokimiyatni va uning xohlagan vakilini tanqid etish huquqini tan olish

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HOKIMIYATNING BO`LINISHI



DAVLAT, DAVLAT TUZILISHI, DAVLAT SHAKLLARI

Davlat tushunchasi va belgilari

Davlat jamiyat siyosiy tizimida markaziy institut hisoblanadi. Politologiyada “davlat” termini odatda ikki ma`noda qo`llaniladi: keng ma`noda (mamlakat, jamiyat, xalq sifatida, ya`ni ma`lum bir hududda joylashgan va oliy hokimiyat organi tomonidan namoyon etiladigan, masalan, rus, frantsuz, bolgar davlati) va tor ma`noda, ya`ni davlat sifatida. Keyingisi qat`iy, ilmiy termin. SHu termin doirasida davlat muayyan hudud chegaralarida konkret manfaatlar (sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy va h.k.) ni ustuvor tarzda amalga oshirishga ko`maklashuvchi siyosiy hokimiyatning tashkiloti sifatida ta`riflanadi.

Davlatning belgilari:

1. Mamlakatning butun hududiga va unda mavjud bo`lgan barcha shakllarga nisbatan qo`llaniladigan va maxsus majburlov muassasalarida moddiy ta`minlangan, jamiyatdan ajralib chiqqan va mamlakat aholisiga mos kelmaydigan ommaviy hokimiyatning mavjudligi (davlat albatta boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo`ladi, zero ommaviy hokimiyat – bu amaldorlar, politsiya, turma va boshqa muassasalar demakdir);

2. Soliqlar, o`lponlar, zaymlar tizimi (iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, davlat apparatini saqlash, moddiy boyliklar ishlab chiqaradigan kishilarni, faqat boshqaruv faoliyati bilan band bo`lgan kishilarni ta`minlash uchun zarur bo`lgan mablag`lar);

3. Aholining hududiy bo`linishi (davlat qaysi urug`, qabila, diniy e`tiqodidan qat`iy nazar, uning hududida joylashgan kishilarni o`zining himoyasi va hokimiyati bilan birlashtiradi);

4. Suverenitet (o`z hududida davlat ustuvorligiga erishish va xalqaro munosabatlarda mustaqil bo`lish);

5. Huquq (davlat huquqsiz yashay olmaydi, shu boisdan ham davlat yuridik jihatdan davlat hokimiyatini rasmiylashtiradi va bu bilan uni oshkora (legitim) qiladi, davlat funktsiyalarini amalga oshirishning yuridik shakl va ramkalarini belgilaydi);

6. Jismoniy majburlash, ochiq kuch ishlatishga bo`lgan monopoliya, ya`ni tanholik (fuqarolarni oliy qadriyatlardan mahrum etish imkoniyati, davlat hokimiyatining alohida faoliyatini belgilaydi);

Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o`rni va roli.

Davlat – bu ma`lum hudud doirasida aniq manfaatlarni ustuvor tarzda amalga oshirishga ko`maklashuvchi siyosiy hokimiyatning tashkiloti. (Manfaatlar – sinfiy, umuminsoniy, diniy, milliy bo`lishi mumkin va h.).

Davlat ijtimoiy jihatdan bir xil bo`lmagan jamiyatda siyosiy hokimiyatni tashkil etishning universal hududiy shaklini o`zida namoyon etadi. Davlat – siyosiy hokimiyatni institutsional rasmiylashtirishning o`ziga xos **sterjenidir**.

Davlat va jamiyatning “siyosiy tizimi” tushunchalari qism va butun sifatida qaraladi. “Umummajburiylik” **prizmasi** orqali siyosiy hayot hodisalarini tartibga solar ekan, davlat siyosiy manfaatlarning turli ko`rinishlarini o`zida to`playdi. Har qanday boshqa ijtimoiy institutning ta`siri eng qulay holatda uning tarafdorlari va ko`ngilli a`zolariga tarqalishi mumkin.

Davlat organlari hukmining yalpi ahamiyati jamiyatning mavjudligi fakti bilan izohlanadi, uning uchun umumiy bo`lgan muammolarini hal qilmasdan turib, normal faoliyat ko`rsatishi mumkin emas.

Siyosiy sistema o`ziga xos yaxlitlik va barqarorlikni berar ekan, aynan shu sifatda davlat siyosiy sistemada alohida rol o`ynaydi. Jamiyat resurslaridan foydalanar va uning hayot faoliyatini tartibga solar ekan, u boshqaruv yuzasidan faoliyatning asosiy hajmini bajaradi.

Jamiyatning siyosiy tizimida davlat markaz, etakchi mavqeni egallar ekan, u quyidagi belgilarga molik bo`ladi:

- butun xalqning yagona rasmiy vakili sifatida chiqib, fuqarolik belgisi bo`yicha hududiy chegaralar doirasida uni birlashtiradi;
- jamiyatni yaqinlashtiradi, mavjud siyosiy farqlar va qarama- qarshiliklardan qat`iy nazar unga yagona ijtimoiy organizm sifatini beradi;
- davlat mustaqillikning namoyandasi hisoblanadi;
- jamiyatni boshqarish uchun tayinlangan maxsus apparatga ega bo`ladi (ommaviy hokimiyat) ;
- “kuch ishlatish” tuzilmalariga ega bo`ladi (qurolli kuchlar, militsiya, xavfsizlik xizmati va hokazo);
- tanho qonun chiqaruvchilik huquqiga ega bo`ladi;
- maxsus moddiy qadriyatlar to`plamiga ega bo`ladi (davlat mulki, byudjeti, valyutasi).

Davlat boshqaruvi shakli

Davlat boshqaruvi shakli – bu davlat shaklining elementi bo`lib, oliy davlat hokimiyati tashkilotini, uning organlari tuzilishi tartibini va ularning aholi bilan o`zaro munosabatlarini tavsiflaydi.

Davlat boshlig`i (monarx yoki prezident), qonun chiqaruvchi organ, hukumat oliy davlat hokimiyati hisoblanadi.

Davlat boshlig`ining mavqeiga qarab boshqaruv shakli monarxiya va respublikaga bo`linadi.

Monarxiya (grekchadan olingan bo`lib, yakka hokimiyat” demakdir) boshqaruv shakli – bu hokimiyat qisman yoki to`laligicha yagona davlat boshlig`i – monarx (korol, podsho, shoh, imperator) qo`lida to`planadi.

Monarxiyaning belgilari:

- hokimiyat meros sifatida o`tadi;
- muddatsiz amalga oshiriladi;
- aholining xoxish-irodasiga bog`liq bo`lmaydi.

Monarxiya cheklanmagan va cheklangan bo`ladi. Cheklanmagan monarxiyada xalqning vakillik muassasasi mavjud bo`lmaydi va unda davlat suvereniteti yakkayu-yagona namoyon etuvchisi monarx hisoblanadi (masalan, feodalizm bosqichining so`nggi davrlaridagi absolyut (mutlaq) monarxiyalar hozirgi zamonda – Saudiya Arabistoni, Bruni). Cheklangan (konstitutsiyaviy) monarxiyada davlat suverenitetini monarxdan tashqari, uning hokimiyatini cheklovchi boshqa oliy davlat organlari ham namoyon etadi (Angliya, Yaponiya, Ispaniya, SHvetsiya, Norvegiya va b.).

Monarxiya dunyoda uzoq yuz yilliklar davomida hukmron boshqaruv shakli bo`lib keldi. Maxsus shaklda u hozirda ham jahon mamlakatlarining uchdan bir qismida saqlanib qolgan.

Respublika - lotinchadan olingan bo`lib, “davlat, jamoat ishi” degan ma`noni anglatadi. Respublika boshqaruv shaklida davlat boshlig`i saylanuvchi va almashtiriluvchi hisoblanadi, uning hokimiyati esa, vakillik organi va saylovchilar xoxish-irodasiga bog`liq hosila hisoblanadi.

Respublikaning belgilari:

- hokimiyatningsaylanishi;
- muddatlilik;
- saylovchilar xoxish-irodasiga bog`liqlik.

Hukumatni kim tashkil etishi, u kimga hisobot berishi, kimning nazoratida bo`lishiga qarab, respublika prezidentlik, parlament aralash shakllariga bo`linadi.

Prezidentlik respublikasida (AQSH, Braziliya, Argentina, Venesuela, Boliviya, Suriya va b.) bu rolni aynan prezident bajaradi, parlament respublikasida (Germaniya, Italiya, Hindiston, Turkiya, Isroil va b.) – parlament, aralash respublikada (Frantsiya, Finlyandiya, Polsha, Bolgariya, Avstriya va b.) – prezident va parlament ijro etadi.

Prezidentlik respublikasida prezident Parlamentga bogʻliq boʻlmagan holda yo saylovchi vakillar kollegiyasi yoki bevosita xalq tomonidan saylanadi. Uning oʻzi hukumatni tayinlaydi va uning faoliyatini boshqaradi. Mazkur respublikada parlamentga ishonchsizlik bildirishi, prezident esa – parlamentni tarqatib yuborishi mumkin emas. Ammo parlament qabul qilinadigan qonunlar yordamida va byudjet muassasasi orqali prezident va hukumat harakatini cheklash imkoniyatiga ega, ayrim hollarda prezidentni lavozimidan cheklatilishi ham mumkin (qachonki u konstitutsiya qonunlarini buzsa, jinoyat sodir qilsa). Prezident oʻz navbatida, qonun chiqaruvchi organning qarorlariga veto (lotinchadan – “taqiqlash”) qoʻyish huquqiga ega.

Parlament respublikasida hukumat qonun chiqarish organi tomonidan shakllantiriladi va uning oldida javobgar boʻladi. Parlament ovoz berish yoʻli bilan hukumatning faoliyatiga, hukumat boshligʻining (Vazirlar Mahkamasi raisi, Bosh vazir, kantsler), konkret vazir faoliyatiga ishonch bildirishi yoki ishonchsizlik bildirish mumkin. Davlatning boshligʻi prezident hisoblanib, u parlament tomonidan yoki saylovchi vakillar kollegiyasi tomonidan yoki xalq tomonidan (toʻgʻridan-toʻgʻri ovoz berish orqali) saylanadi. Biroq davlat hokimiyati organlari tizimida u kamsuqum oʻrinni egallaydi – uning maʼsuliyati konstitutsion monarxiyada davlat boshligʻi funktsiyasidan unchalik farq qilmaydigan vakillik funktsiyasi bilan cheklanadi. Haqiqatda davlat boshligʻi sifatida gʻukumat rahbari faoliyat koʻrsatadi.

Aralash respublika (yarim prezidentlik, yarim parlament) ning xarakterli tomoni shundaki, hukumat ikki karra maʼsuliyatli boʻladi – ham prezident oldida, ham parlament oldida. Bunday respublikalarda prezident va parlament bevosita xalq tomonidan saylanadi. Bu erda davlat boshligʻi – prezident. Parlamentda siyosiy kuchlarning joylashuviga qarab, u hukumat boshligʻini va vazirlarni tayinlaydi. Davlat boshligʻi vazirlar mahkamasi yigʻilishlarida raislik qiladi va uning qarorlarini tasdiqlaydi. Parlament mamlakatning har yillik byudjetini tasdiqlash, shuningdek hukumatga ishonchsizlik bildirishi bilan hukumat faoliyatini nazorat qilish imkoniga ega.

D A V L A T

Muayyan hududga joylashgan, milliy va ko`pmillatli birlikdan tashkil topgan siyosiy yaxlitlik bo`lib, mazkur hududda siyosiy yaxlitlik bo`lib, mazkur hududda siyosiy elita tomonidan o`rnatilgan huquqiy tartibot qonuniy majburlovni qo`llash huquqiga ega bo`lib, tanho hokimlik qiladi

*Davlatning kelib chiqishi va mohiyati
konsepsiyalari*

Partiarxal (R. Filmer)

Geografik

*Zo`rlilik nazariyasi
(E.Dyuring, L.Gumilovich)*

*Jamoat shartnomasi
(G.Grosiy, J.Russo, J.Pokk)*

Ijtimoiy- iqtisodiy

*Organik
(J.Forteskyu, A.Sheffle, R.Vorms)*

Ruhiy (J.Byurdo)

Siyosiy antropologiya

*Asosiy
atributlar*

Hudud

Aholi

Ommaviy hokimiyat

DAVLATNING FUNKSIYALARI

I c h k i

Iqtisodiy

Ijtimoiy

Xalq hokimiyatini ta`minlash

Konstitutsion tuzumni himoya qilish

*Huquqiy tartibotni va qonunchilikni
ta`minlash*

*Jamiyat mushtarakligi, ijtimoiy
hakamlk*

E k o l o g i y a

Madaniyat

T a s h q i

*Umumbashariy muammolarini hal
etishda qatnashish*

*Milliy xavfsizlikni
ta`minlash*

*O`zaro foydali hamkorlikni
rivojlantirish*

*Xalqaro munosabatlarda davlat
manfaatlarini himoya qilish*

DAVLAT TUZILISHI

Hokimiyatning tuzilishi bo'yicha

Qonunchilik muassasalari tizimi

Ijroiya-farmoyish organlari

Sud organlari

Bajaruvchi funksiyalari bo'yicha

Ichki funksiyalarni amalga oshiruvchi organlar

Tashqi funksiyalarni amalga oshiruvchi organlar

*Huquqiy tartibotni
saqlash, xavfsizlik*

*Ijtimoiy-iqtisodiy
tartibotga solish*

*Ma'naviy ishlab
chiqarish*

*Qurolli kuchlar,
razvedka, davlatlararo
munosabatlar
organlari*

*Politsiya, sud,
prokuratura*

*Moliya-soliq apparati,
aloqa organlari,
kommunal xizmatlar,
transport organlari*

*Ta'lim, madaniyat
muassasalari,
informatsiya
organlari*

IJTIMOIIY DAVLAT

Ta`minlaydi:

Jamiyatda ijtimoiy adolatni o`rnatish sari harakat

Ijtimoiy tengsizlikni kuchsizlantirish

Har bir kishini ish bilan yoki yashash uchun zarur bo`lgan boshqa manba bilan ta`minlash

Jamiyatda tinchlik va kelishuvni saqlash

Inson uchun qulay hayotiy muhitni shakllantirish

Asoslanadi:

Iqtisodiy taraqqiyotning yetarlicha yuqori darajasiga

Siyosiy tizim demokratizmiga

Jamiyat taraqqiyoti maqsadlari va yo`llariga nisbatan asosiy siyosiy kuchlarning murosasiga

Fuqarolarni himoyalash va ijtimoiy hamkorlik tizimining rivojlanishiga

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rejalashtirish va tartibga solish tizimida davlat rolining ortib borishiga

HUQUQIY DAVLAT

Ta`minlaydi:

*Huquq va qonunning
ustuvorligini*

*Inson huquqlari va erkinliklarining
maksimal kafolatini*

*Hammaning qonun
va sud oldida
tengligini*

*Fuqaro va davlatning o`zaro
mas`uliyatligini*

*Shaxsning sud va boshqa
himoyasini*

Asoslanadi:

*Hokimiyat bo`linishi va
muvozanatiga*

*Hokimiyatning chegaralari va o`lchovlari
o`rnatilishiga*

Siyosiy ko`pfikrlilikka


*Hokimiyat va boshqaruvning qonunga
bo`ysunishiga*

Konstitutsiyaviy nazoratga

*Keng mahalliy o`z-o`zini
boshqaruvga*

DAVLATLAR TIPOLOGIYASI

Klassifikatsiyalash uchun negiz (asos)lar



MILLIY DAVLAT TUZILISHINING SHAKLLARI

Unitarizm

Ma`muriy davlat birliklari ustidan markazlashgan boshqaruvning mavjudligi va maxsus (mustaqil) davlat birlashmalarining mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Bu yagona, bo`linmas, yaxlit butunlikni tashkil etuvchi davlat tuzilishi, keng hududiy yoki milliy avtonomiya bo`lishi mumkin.

Federatsiya

Ikki yoki bir necha hududiy birliklarni (shtat, yerlar, viloyatlar, respublikalar) bir davlatga birlashuvi; bunda ular ma`lum darajada siyosiy, iqtisodiy va madaniy mustaqillikka va o`z ma`muriy-hududiy bo`linishiga ega bo`ladi.

Konfederatsiya (hamdo`stlik)

Qandaydir ko`rinishdagi davlat faoliyatini muvofiqlashtirish uchun davlatlarning birlashuvi. Bu davlatlararo ittifoqda uning barcha a`zolari mutlaq avtonom bo`lib, o`z davlat va qonunchilik organlari tizimiga, mustaqil fuqarolikka, o`z valyutasiga, milliy armiyasiga ega bo`ladi.

K O N F E D E R A T S I Y A

Amalda suverenitetni to'liq hajmda saqlab qoluvchi davlatlar ittifoqi shakli. Ittifoqni to'la yemirilishiga yoki federatsiyaga olib boruvchi shakl.

T a v s i f i y j i h a t l a r i

*Tegishli shartnomalar asosida
tashkil topadi*

*Konfederatsiya sub`ektlari erkin
chiqish huquqiga ega*

*Konfederatsiyada suverenitet uning tarkibiga
kiran davlatlarga tegishli bo`ladi*

*Konfederatsiya ixtiyoriga unchalik katta
bo`lmagan masalalar beriladi*

*Faqatgina shartnoma aktlarida ajratib
ko`rsatilgan organlarga tashkil etiladi*

*Parlament, uning sub`ektlari vakillik
organlari bilan shakllantiriladi.*

*Konfederatsiyaning doimiy harakat qiladigan
organlari hokimiyat vakolatidan mahrum etilgan*

*Ittifoq hokimiyati aktlarini tan olishni rad etish
huquqi sub`ektlarga tegishli*

*Byudjet sub`ektlarning ixtiyoriy badallari
evaziga shakllanadi*

*Sub`ektlar shaxs, tovarlar, hizmat, kapitalning
erkin harakat qilishiga, boj yoki boshqa
cheklashlar o`rnatish huquqiga ega bo`ladi*

*Qoidaga ko`ra, yagona pul muomalasi
tizimi mavjud emas*

*Harbiy tuzilmalar sub`ektlar tomonidan
tashkil etiladi*

Konfederatsiyada ittifoq fuqaroligi mavjud emas

FEDERATSIYA

Federatsiyaning barcha aʼzolari uchun umumiy boʻlgan vazifalarni markaziy hokimiyat tomonidan hal etish uchun birlashgan, bir necha davlat birlashmalaridan tarkib topgan yagona davlatdir.

A s o s i y x u s u s i y a t l a r i

Federatsiya subʼektlari suverenitetga ega emas. Undan chiqish huquqidan mahrum. Oʻz hududida ustivorlikka ega emas.

Federatsiya huquq faoliyati sohasi butun federatsiyaga tarqaladi, subʼektlar uni qoʻllanishiga qarshilik koʻrsatish huquqiga ega emas.

Subʼektlarning davlat hokimiyati tuzilishi, odatda, federal organlar namunasida tuziladi.

Moliyaviy markazlashuv

Yagona ichki iqtisodiy bozor amal qiladi.

Federatsiya fuqarolarning erkinliklari va huquqlari kafolati sifatida chiqadi.

Subʼektlar oʻz hududlariga, konstitutsiyalariga va yetarlicha darajada mustaqillikka ega boʻlgan hokimiyat organlariga ega boʻladi.

Federatsiya va uni subʼektlari ixtiyorida boʻlgan narsalar federal konstitutsiya tomonidan chegaralab qoʻyiladi.


Subʼektlar federatsiya darajasida oʻzaro faol harakat qiladi.


HOZIRGI ZAMON DAVLATLARINING MA`MURIY-HUDUDIY TUZILISHI HUSUSIYATLARI QIYOSIY TAHLILI

<i>Unitar davlat</i>	<i>Federatsiya</i>	<i>Konfederatsiya</i>
<i>Konstitutsion (belgilovchi) qarorlar mamlakat hokimiyatining oliy organlari tomonidan qabul qilinadi.</i>	<i>Bevosita (istisnosiz) federatsiya kompetentsiyasiga kiruvchi sohalarda hokimiyatning oliy federal organlari tomonidan birga olib boriladigan sohalarda federatsiya sub`ektlari ishtiroki bilan konstitutsion qarorlar qabul qilinadi</i>	<i>Konstitutsion qarorlar konfederatsiya ishtirokchilari bo`lgan davlatlar oliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadi</i>
<i>Yagona hudud, ma`muriy-hududiy birliklarining chegaralari mintaqalarining tarihan tarkib topgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda o`rnatiladi va o`zgartiriladi</i>	<i>Federatsiya hududini uning sub`ektlari hududlari tashkil etadi, federatsiyaning ichki chegaralari faqat uning sub`ektlari roziligi bilan va qonunda o`rnatilgan tartibda o`zgartirilishi mumkin</i>	<i>Yagona hududning mavjud emasligi</i>
<i>Ma`muriy-hududiy birliklarga siyosiy hokimiyat bo`lib berilmagan</i>	<i>Federatsiya sub`ektlari cheklangan siyosiy mustaqillikka ega</i>	<i>Ishtirokchi davlatlar siyosiy mustaqillikni saqlab qoladi</i>

<i>Bir palatali yoki ikki palatali parlament, palatalar umummiy vakilligi asosida shakllanadi</i>	<i>Ikki palatali parlament, palatalardan biri – federatsiya sub`ektlari vakilligi, ikkinchisi - umummiy vakillik</i>	<i>Yagona oliy qonunchilik organining yo`qligi yoki bir palatalik qonunchilik majlisi</i>
<i>Yagona Konstitutsiya</i>	<i>Federatsiya konstitutsiyasi va federatsiya sub`ektlari konstitutsiyasi (ustavlari)</i>	<i>Ishtirokchi davlatlar konstitutsiyalari</i>
<i>Yagona huquqiy va sud tizimi</i>	<i>Federal qonunchilikning ustuvorligi va federatsiya sub`ektlarining o`z kompetentsiyalari sohasidan qonunchilik aktlarini qabul qilish huquqi</i>	<i>Yagona huquqiy va sud tizimining mavjud emasligi</i>
<i>Yagona fuqarolik</i>	<i>Federal fuqarolik va federatsiya sub`ektlari fuqaroligi</i>	<i>Ishtirokchi davlatlar fuqaroligi</i>
<i>Yagona, bo`linmas, yaxlit butunlikni tashkil etuvchi davlat tuzilishi</i>	<i>Odatda federatsiya sub`ektlari federativ shartnomani buzish va federatsiya tarkibidan chiqish huquqidan mahrum bo`ladilar</i>	<i>Konfederativ shartnoma ishtirokchi davlatlar tomonidan, shu jumladan bir tomonlama tartibda ham buzilishi mumkin</i>
<i>Davlat to`la hajmda halqaro faoliyatni amalga oshiradi</i>	<i>Federatsiya sub`ektlarining xalqaro aloqalari cheklangan: chet el vakolatxonalariga ega bo`lishlari, xalqaro tashkilotlar faoliyatlarida qatnashishlari, ilmiy va madaniy almashinuvlarni amalga oshirishlari mumkin</i>	<i>Ishtirokchi-davlatlar to`la hajmda xalqaro faoliyatni amalga oshirishlari mumkin</i>

BOSHQARUVNING TURLI RESPUBLIKA SHAKLLARI. PREZIDENT VAKOLATLARINING HARAKTERLI XUSUSIYATLARI





DAVLAT HOKIMIYATI (Rossiya federatsiyasida amalga oshiriladi)

RF Prezidenti

- Davlat boshlig'i hisoblanadi
- Inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining RF Konstitutsiyasi kafolati hisoblanadi.
- RF suvereniteti, uning mustaqilligi va davlat yaxlitligini saqlash chora-talari ko'radi
- Davlat hokimiyati organlarining kelishilgan amal qilishi va o'zaro harakatini ta'minlaydi
- Davlat siyosatining ichki va tashqi siyosatini asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.
- Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda RF nomidan ish ko'radi.

RF Federal majlis

- RF vakillik va qonunchilik organi hisoblanadi. Federatsiya kengashi amalga oshiradi:
- RF sub'ektlari o'rtasidagi chegara o'zgarishlarini tasdiqlaydi
- Prezident farmonini tasdiqlash (harbiy va favqulotda holat haqida)
- RF prezidenti saylovini tayinlash va uni vazifasidan bo'shatish
- Sudya va bosh prokurorni tayinlash, prokurorni vazifasidan bo'shatish
- RF quroli kuchlaridan uning hududidan tashqarisida foydalanish to'g'risidagi masalani hal qiladi

Davlat Dumasi:

- RF hukumati raisini tayinlashga rozilik beradi.
- Hukumatga ishonch bildirish haqidagi masalani hal etadi
- RF markaziy banki raisini tayinlaydi va bo'shatadi.
- Avf e'lon qiladi
- RF Prezidentini lavozimidan ozod etish uchun ayblovni ilgari suradi

RF Hukumati

- Ijroiya hokimiyatni amalga oshiradi.
- Federal byudjetni ishlab chiqadi va uni ijrosini ta'minlaydi.
- RFda yagona moliyaviy kredit va pul siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydi.
- Madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasida yagona davlat siyosatini yurgizishni ta'minlaydi.
- Federal mulkni boshqarishni amalga oshiradi
- Qonunchilik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshiradi.
- RF tashqi siyosatini amalga oshirish, mamlakat mudofaa-sini, davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshiradi.


RF sudlari

- Konstitutsion sud:
- RF va federal sub'ektlari tomonidan qabul qilingan qonunlar, normativ aktlarni RF Konstitutsiyasiga to'g'ri kelishi to'g'risida masalani hal etadi
- Davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi kompetent haqidagi tortishuvni hal etadi.
- RF Konstitutsiyasini sharxlaydi
- RF Prezidentiga ayblov ilgari surilganda o'rnatilgan tartibga rioya etilishi to'g'risidagi xulosa beradi
- Oliy SUD:
- Fuqarolik, jinoiy va boshqa ishlar bo'yicha oliy sud organi hisoblanadi
- Oliy hakamlik sudi:
- Iqtisodiy tortishuvlar va boshqa arbitaj sudlari ko'radigan masalalar bo'yicha oliy sud organi hisoblanadi.


Rossiya Federatsiyasi – boshqaruvning respublika shaklidagi boʻlgan demokratik federativ huquqiy davlat



SHVEYTSARIYANING DAVLAT TUZILISHI (Boshqaruvning parlament shakli)




FRANTSIYANING DAVLAT TUZILISHI (*boshqaruvning «aralash» shakli*)



BUYUK BRITANIYA DAVLAT TUZILISHI

(Konstitutsion monarxiya)



FUQAROLIK JAMIYATI

Fuqarolik jamiyati nazariyasi Aristotel, TSitseron, Forobiy, Grotsiy, Gobbs, Lokk, Gegel va boshqalar kabi ko`zga ko`ringan mutafakkirlar tomonidan yaratilgan.

Amaliyotda barcha olimlar fuqarolik jamiyatining asosiy g`oyasi sifatida inson muammosini ilgari surishgan. Fuqarolik jamiyati – u individlar va ularning guruhlarini manfaatlarini qondiradigan institutlar, ahloqiy, diniy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlarning yig`indisidir.

Fuqarolik jamiyatining tuzilishi:


- nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (mulk, mehnat, tadbirkorlik);
- davlatga qaram bo`lmagan ishlab chiqaruvchilar (xususiy firma va b.) ;
- jamoat birlashmalari va tashkilotlari;
- siyosiy harakatlar va partiyalar;
- tarbiya sohasi va nodavlat ta`limi;
- nodavlat ommaviy axborot vositalari tizimi;
- oila;
- cherkov, diniy idoralar.


Fuqarolik jamiyatining belgilari:

- inson va fuqaro huquq va erkinliklarini yanada to`laroq tayinlanishi;
- o`z-o`zini boshqaruv;
- uni tashkil qiluvchi tuzilma va odamlarning turli guruhlarini raqobati;
- erkin shakllanuvchi ijtimoiy fikr va ko`pfikrlilik (plyuralizm);
- yalpi axborot bilan ta`minlanish va eng avvalo insoning axborot olishga bo`lgan huquqini amalda bajarilishi;
- hayotiy faoliyat unda muvofiqlashtirish qoidasi bo`yicha asoslanadi (mutanosiblik qoidasi bo`yicha tuziladigan davlat apparatidan farqli);
- iqtisodiyotning ko`p ukladliligi;
- hokimiyatning demokratik xarakteri va oshkoraligi;
- huquqiy davlat;
- kishilar hayot darajasini munosib ta`minlay oladigan davlatning kuchli ijtimoiy siyosati.


FUQAROLIK JAMIYATI

Insonning hayot faoliyati sharoitlarini, shaxs va ijtimoiy guruhlarning manfaat va turli xil ehtiyojlarini qondirishni va ro'yobga chiqarishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, rasmiy va norasmiy strukturalar yig'indisidir.





FUQAROLIK JAMIYATI VA SIYOSIY HOKIMIYAT



SIYOSIY PARTIYALAR, SIYOSIY MANFAATLAR

Siyosiy partiyalar tushunchasi, funktsiyalari va tuzilishi

“Partiya” termini lotin tilidan olingan boʻlib, “qism”, “guruh” degan maʼnoni anglatadi. U qadimgi dunyodanoq tarqalgan edi. Biroq tom maʼnoda siyosiy partiyalar parlamentarizmning shakllanishi jarayonida, yaʼni XVIII-XIX asrlarda paydo boʻldi.

Siyosiy partiya – bu ijtimoiy guruhlar va sinflarning ancha faol va uyushgan qismi boʻlib, ularning manfaatlarini aks ettiradi, umumiy mafkura bilan bogʻliq va siyosiy hokimiyat uchun kurash olib boradi.

Siyosiy partiyalar muayyan maqsadlarni koʻzlab, jamiyat tashkiloti va siyosiy hayotiga taʼsir etadi, davlat hokimiyatini amalga oshirishda hal qiluvchi mavqelarni qoʻlga kiritadi. Odatda, siyosiy tizimda bir necha partiyalar harakat qiladi, bu turli xil ijtimoiy qatlamlar va sinflar oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar bilan, ularning har birini oʻz siyosatini amalga oshirish uchun kurash olib borishi bilan bogʻliq.

Jamiyat siyosiy tizimida partiyalar alohida oʻrinni egallaydi. U boshqa institutlar (kasaba uyushmasi, dehqonlar birlashmasi va boshqa jamoat tashkilotlari)dan farq qiladi. Mazkur institutlar ham siyosiy faoliyati bilan mashgʻul boʻlsalar-da, ularning asosiy faoliyati oʻz aʼzolarining ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan boʻladi. Oʻz navbatida, siyosiy partiyalar faoliyatining bosh mezoni hokimiyatni egallash va amalga oshirishga, davlat ishlarini boshqarish uchun kurashga qaratilgan boʻladi.

Siyosiy partiya jamiyatning muayyan sinf, qatlami manfaatlarining izchil ifodachisi sifatida maydonga chiqib, kishilarning koʻngilli jamoasini oʻziga namoyon etar ekan, bu kishilar mafkura jihatidan birlashgan va uyushgan boʻladi, oʻzlarining asosiy manfaatlarini amalga oshirish uchun davlat hokimiyatini egallashni, ushlab turishni va undan foydalanishni maqsad qilib qoʻygan boʻladilar.

Siyosiy partiyalarning funktsiyalari:

- yirik ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aniqlash, taʼriflash va qondirish;
- kishilarning muayyan qismini faollashtirish va yaqinlashtirish;
- siyosiy hokimiyat uchun va undan foydalanish uchun kurash, oʻzgarib turuvchi vaziyatga qarab mazkur kurashning shakli, vositalari va metod (ulul)larini aniqlash (ochiq va yopiq, inqilobiy va tadrijiy-islohotchilik, qurolli va kuch ishlatmaslik va b.);

- oliy va mahalliy hokimiyat organlarini shakllantirish bo'yicha saylov kampaniyasini tayyorlash va o'tkazish, ularga o'z tarafdorlarini yo'llash, ularning parlamentdagi faoliyati ustidan nazoratni tashkil etish;
- partiya mafkurasini ishlab chiqish, jamiyatni rivojlantirishning siyosiy dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va tashviqot olib borish;
- jamiyatni yoki uning ma'lum qismini siyosiy jihatdan tarbiyalash;
- partiya uchun, turli xil ijtimoiy tashkilotlar va davlat apparati uchun kadrlar tayyorlash va ularni yo'llash, hukmronlik qiluvchi elitani shakllantirish.

Siyosiy partiyalarning tuzilmasini partiya apparati, oddiy partiya a'zolari (partiya ommasi) tashkil etadi. Uning ijtimoiy asosini partiya tarafdorlari tashkil etadi.

Siyosiy partiyalar jamiyatdagi turli xil kategoriyadagi kishilarning, qatlamlarning, guruhlarining, sinflarning turlicha manfaatlarini ifoda etadi.

Odatda siyosiy partiyalarni quyidagi mezonlar bo'yicha klassifikatsiya qiladilar:

1. Dasturi va faoliyatining ijtimoiy yo'nalishga qarab: sotsial-demokratik, liberal-demokratik, kommunistik, sinfiy, millatchi, irqchi, fashistik, diniy, davlat-patrioti, xalq;

2. Ular faoliyatining g'oyaviy asoslariga qarab: doktrinal (eng avvalo o'z mafkurasini himoya qilishga yo'naltirilgan), pragmatik (harakatning amalda maqsadga muvofiqligiga yo'naltirilgan) va xarizmatik (aniq bir siyosiy etakchi (lider) atrofida birlashgan);

3. Dasturni bajarilishi metodiga qarab inqilobiy (jamiyatni sifat jihatidan keskin qayta qurishga intiluvchi) va islohotchi (jamiyat hayotini tuzilmalarini qat'iy o'zgartirmasdan yaxshilashga intiluvchi);

4. Siyosiy harakatlarning xarakteriga qarab: reaksion, konservativ, mo'tadil, radikal, ekstremistik;

5. Davlat hokimiyati oliy organlaridagi vakillikka va rasmiy siyosatga munosabatiga qarab: hukmron va muxolif (muxolif yuridik maqomiga ko'ra ochiqcha, yarimochiqcha, yashirish bo'lishi mumkin);

6. Siyosiy spektrdagi o'rniga qarab: chap (so'l), markaziy, o'ng;

7. Partiya etakchilari bilan oddiy partiya a'zolari o'rtasidagi munosabat uslubiga qarab: demokratik va antidemokratik;

8. A`zo bo`lish xarakteriga qarab: kadrlar (kam sonliligi, erkin a`zo bo`lishlik, tashkiliy yumshoqlik) va ommaviy (o`z safiga imkon boricha ko`proq a`zolari jalb etish, aloqalarni mustahkamlash, tuzilmani mustahkamlash) ;

9. Tashkiliy tuzilishiga qarab: parlament (bu erda dastlabki birlashmalar sifatida hududiy qo`mitalar amal qiladi), leyborist (parlament partiyalarning xilma-xilligi, jamoa bo`lib a`zo bo`lishga imkon beruvchi partiyalar) va avangard (o`z a`zolarini hududiy ishlab chiqarish birlashmasi va demokratik markazlashuv qoidasi asosida tuzilgan).

Albatta, mazkur klassifikatsiya va boshqa har qanday klassifikatsiya tugallanmagan va shartli asosida olingan. Yana bir qancha mezonlarni sanab o`tish mumkin. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, bir partiyaning o`zi ham bir necha xil pozitsiyalar asosida ko`rib chiqilishi va turlarga ajratilishi mumkin.

Siyosiy plyuralizm (ko`pfikrlilik) – bu turli ko`rinishdagi siyosiy kuchlarning mavjud bo`lishi, ularning o`zaro raqobat bilan davlat hokimiyati organlarida vakillikka ega bo`lishiga ko`maklashuvchi printsip. U turli xil nuqtai-nazarlar o`rtasida bahs, bo`linishni, manfaatlar to`qnashuvini nazarda tutadi.

Siyosiy plyuralizmning mohiyatini jamiyat turli guruhlarining ko`p ko`rinishli manfaatlarini ifodalovchi ko`plab fikrlar, qarashlar, pozitsiyalar tashkil etadi. Siyosiy plyuralizm nafaqat ijtimoiy ongda, balki turli siyosiy institutlarni gavdalantirib va jamiyatning muayyan tuzilmasiga ta`sir etib, siyosiy amaliyotda ham paydo bo`ladi: partiyalarda, harakatlarda, frontlarda, assotsiyalarda, fraktsiyalarda, shuningdek, hamma darajadagi vakillik organlarida.

Siyosiy plyuralizm ko`p hollarda mulk shaklining xilma-xilligidan, hayotning turli xil ko`rinishlari zaruratidan kelib chiqadi. Hayot faoliyatining ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot va boshqa sohalarida band bo`lgan kishilar guruhlarining manfaatlari va konkret ijtimoiy pozitsiyalari uning asosi hisoblanadi.

Plyuralizmning ijtimoiy qimmatini shundaki, uning ko`magida individning o`z fikrini ifoda etishga imkoniyat ta`minlanadi, imkoniyatlar tengligi, jamiyatda mavjud bo`lgan barcha guruhlariga nisbatan toqatli bo`lish ta`minlanadi.

Siyosiy plyuralizm ko`ppartiyaviylik bilan, g`oyalar raqobati bilan bog`liq bo`lib, konstitutsiya va qonunlar doirasida butun siyosiy kuchlarning ongli ravishda, aql bilan legal kurash olib borishini ko`zda tutadi, ozchilikni o`z tuzilmasini, jumldan muxolifatni ham saqlanishiga imkon yaratadi.

Siyosiy plyuralizmning tarkibi (komponenti):

– siyosiy g`oyalar va tashkiliy shakllarning turli ko`rinishda ekanligi;

- yakka markazchilikni rad etish;
- kishilarning partiyalar va boshqa qonuniy tashkilotlarga erkin birlashishi;
- boshqacha fikrlarga, qarama-qarshi qarashlarga nisbatan uzrli munosabatda bo`lish;
- muxolif kuchlarning mavjudligi va ularning to`siqsiz faoliyat ko`rsatishi;
- markaziy hokimiyatning cheklanishi, hokimiyatning bo`linishi;
- hokimiyatda siyosiy tuzilmani almashtirish imkoniyati.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida siyosiy plyuralizm qonuniy mustahkamlangan. Unga ko`ra, “O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi”.

Siyosiy kampaniyalar: ularning strategiyasi va taktikasi

Siyosiy kampaniyalar – bu mayyan maqsadlarga erishishga mo`ljallangan harakatlar tizimidir. Odatda siyosatda bunday maqsadlar bilan jamiyatda hokimiyat tuzilmasida o`zgarishlar bo`ladi, ya`ni siyosiy vakolatlar qayta taqsimlanadi, hokimiyat organlari shakllanadi, u yoki bu milliy ustuvorliklarga erishiladi. Demak, gap jamoa bo`lib harakat qilish haqida ketayotgan ekan, siyosiy kampaniyalarning muvoffaqiyati sezilarli darajada uning maqsadlarini odamlarning ko`pchilik miqdorda qo`llab-quvvatlashiga bog`liqdir.

Siyosiy kampaniyaning muvoffaqiyatlari bir qator holatlar bilan belgilab olinadi:

- iqtisodiy kon`yuktura, uning muhitida siyosiy kampaniya avj oladi;
- hamma uchun tushunarli bo`lgan shiorlar, ramzlar, ularda pozitiv munosabatlar, hissiy javoblarni talab qiluvchi kampaniyaning dasturiy maqsadlari obrazli shaklda ifodalanadi;
- umume`tirof etilgan lider, uning obrazi kampaniya, harakat maqsadlarining etuk ifodasi bo`lib xizmat qiladi.

Demokratik jamiyat uchun saylov kampaniyasining muhim ko`rinishlaridan biri saylovdir.

Saylov kampaniyasi olib borishning maxsus texnikasi saylov muhandisligi deb ataladi va bir qator ob`ektiv va sub`ektiv holatlarni hisobga olgan holda quriladi:


- saylovchilarning kayfiyatlari va siyosiy afzalliklarini ma`lum darajada ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog`liqligi mavjud bo`ladi;

- mazkur jamiyatda yoki ijtimoiy guruhda hukmronlik qiluvchi siyosiy madaniyat ovoz berishda qatnashuvchi kishilarning siyosiy orientatsiyasiga taʼsir etadi;
- saylanadigan lavozimga daʼvogarning shaxsi, uning oʻz maqsadlarini tushunarli qilib bera olishi, ovoz beruvchilar ommasiga yoqishi yoki yoqmasligi muhim rol oʻynaydi;
- ovoz berish natijasi uchun nafaqat nomzodning shaxsiga boʻlgan munosabat, balki mazkur vaqtda nomzod namoyon etayotgan va himoya qilayotgan siyosiy kuchlar manfaatlari ham muhimdir.

Saylovlarda ishtirok etishdan bosh tortishga olib keladigan hatti-harakatlar ichida siyosiy arboblarga befarqlik bilan qarash hissi, siyosiy tizimga dushmanlik ruhi, kishilarning ovoz berishda ongli ravishda, puxta oʻylab ish koʻrishga xalaqit beruvchi murakkab, chalkash saylov jarayonlari, shuningdek turli xil siyosiy oʻyinlar, aldovlar ham hukmronlik qiladi.

SIYOSIY PARTIYALAR


Davlatda hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etishga yoki siyosiy hokimiyatni egallashga harakat qiluvchi, mafkuraviy birlik bilan bog`liq bo`lgan ko`ngilli ittifoq



PARTIYA TIZIMI


Hokimiyat va uni amalga oshirish uchun kurashda ishtirok etuvchi (hukmron va muxolif) partiyalar yig'indisi.

Klassifikatsiya asoslari




SIYOSIY PARTIYALARNING KLASSIFIKATSIYASI

Klassifikatsiyaning asoslari



DEMOKRATIYANING SIYOSIY TIZIMLARDA SIYOSIY PARTIYALAR O`ZARO MUNOSABATLARINING ASOSIY PRINSIPLARI (QOIDALARI)



SIYOSIY MANFAAT

Insonning, ijtimoiy guruhlarning o'z dunyoqarashlari prinsiplariga, e'tiqodlariga asoslangan hamda qandaydir siyosiy hodisalarga, jarayonlarga, siyosiy faoliyatiga nisbatan saylov munosabati. Bu siyosiy xulq-atvorning ichki, anglangan manbai bo'lib, u kishilarni siyosiy maqsadlarni qo'yish va ularga erishishning konkret siyosiy harakatlarini amalga oshirishga undaydi

Tavsifiy xususiyatlari

Siyosat sohasida turadi va jamiyatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usullari va mexanizmi bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liq

Jamiyat iqtisodiy ustqurmasida moddiy munosabatlarda etiladi, ammo shu bilan birga unga nisbatan faol rol o'ynaydi

Nisbiy mustaqillikka ega: davlat manfaatlari shaxs, ijtimoiy guruh, millatning siyosiy manfaatlari bilan mos kelmasligi mumkin

Siyosatni asoslashning boshlang'ich omillari, ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishning asosi hisoblanadi

Doimo milliy tusga ega, chunki millatlar siyosatning sub'ektlari, milliy munosabatlar esa, siyosiy munosabatlarning elementidir

Amalga oshirish mexanizmi

Siyosiy xulq-atvor shakllanishi

Siyosiy faoliyat

Individlarning siyosiy hokimiyatga bir vaqtda yoki davriy ravishda takrorlanadigan harakati (ta'siri)

Saylovlarda ishtirok etish

Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyatida qatnashish

Referendumlar, mitinglar, namoyishlarda qatnashish

Hukumat mansabdarlari bilan aloqada bo'lish

Obro'li siyosiy arboblarga maktub yo'llash


Siyosiy faoliyat

Jamiyatda mavjud bo'lgan siyosiy munosabatlarni kishilarning ko'pchilik ommasi (sinflar, millatlar, guruhlar) tomonidan o'zgartirish yoki takomillashtirish bo'yicha turli siyosiy institutlar doirasida professional ish olib borish

Davlat strukturasi ishlash

Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari apparatida ishlash

SIYOSIY MANFAATLARNING KLASSIFIKATSIYASI



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZODLAR HUQUQLARINING KAFOLATLARI

*O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro`yxatga olinganlarning
hammasi teng huquqlarga ega*

*O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga
nomzodni majburiy keltirish, shuningdek uning
shaxsiy buyumlarini, yukini, transportini,
turar joy va xizmat binolarini
ko`rikdan o`tkazishga yo`l
qo`yilmaydi*

*O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga
nomzod O`zbekiston Respublikasi Bosh
prokurorining roziligisiz jinoiy javobgarlikka
tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan
beriladigan ma`muriy jazoga tortilishi
mumkin emas*

*O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga
nomzod ro`yxatga olingandan keyin
O`zbekiston Respublikasi hududi doirasida davlat
yo`lovchilar transportining barcha turlarida
(shahar yo`lovchilar transportidan, taksidan va
transport boshqa turlarining buyurtma
yo`nalishlaridan tashqari) tekinga yurish
huquqiga ega*

*O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga
nomzod saylovchilar bilan uchrashuvlar
o`tkazish, saylovoldi yizilishlarida so`zga
chiqish, televidenie ko`rsatuvlari va radio
eshittirishlarida qatnashish vaqtida saylovni
o`tkazish uchun ajratiladigan mablaʼlar
hisobidan o`rtacha oylik ish haqi saqlangan
holda, ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalarini
bajarishdan ozod bo`lish huquqiga ega*

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTLIGIGA NOMZODLAR
KO`RSATISH HUQUQIGA EGA
SUB`EKTLAR**


SIYOSIY PARTIYALAR

*Siyosiy partiya saylov kampaniyasi
boshlanganligi e`lon qilingan kundan
kamida olti oy oldin O`zbekiston
Respublikasi Adliya vazirligi
tomonidan ro`yhatga olingan
taqdirdagina O`zbekiston Respublikasi
Prezidentligiga nomzod ko`satishi
mumkin*


FUQAROLAR

*Saylash huquqiga ega bo`lgan fuqaro
yoki fuqarolar guruhi O`zbekiston
Respublikasi Prezidentligiga nomzod
ko`rsatish uchun kamida uch yuz nafar
saylovchidan iborat saylovchilar
tashabbuskor guruhini tuzishi
mumkin*

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVINI O`TKAZUVCHI SAYLOV KOMISSIYALARI



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVINI O`TKAZISH PRINSIPLARI





O`ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xoʻxish-irodani erkin bildirish, partiya-ga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, aʼzolarining teng huquqliligi, oʻzini-oʻzi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi

Oʻz ustavidagi vazifalarni bajarish maqsadidagina ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish mumkin

Pul mablagʻlari aʼzolik badallari-dan, noshirlik faoliyatidan keladi-gan daromadlardan, fuqrolar va ja-moat birlashmalari tomonidan begʻaraz berilgan mablagʻlardan shakllanadi

Siyosiy partiyalar xayriya yordami olish huquqiga ega

Siyosiy partiyalarga aʼzolik faqat yakka tartibda qayd etiladi

Bir partiyaning aʼzosi ayni vaqtda ikkinchi partiya-ga aʼzo boʻlishi mumkin emas.

Ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlar partiya aʼzolari oʻrtasida taqsimlanmaydi

Davlat siyosiy partiyalarni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik pa-latasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organ-lariga saylovda ishtirok etishi uchun moliyalashtiradi


Saylab qoʻyiladigan davlat organlaridagi oʻz vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda qatnashadi

Oʻzbekiston Respublikasi Pre-zidenti saylovida qatnashadi.

Davlat hokimiyati organlari saylovlarida qatnashadi

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida oʻz fraksiyasini tuzadi

Qoraqalpogʻiston Joʻqori Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuzadi.



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR

Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foyda)ni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan, o'zini-o'zi boshqarish tashkiloti

*Bolalar va yoshlar
tashkilotlari*

*Ayollar
tashkiloti*

*Nogironlar
tashkiloti*

*Huquqni himoya
qilish
tashkilotlari*

*Sport
tashkilotlari*

*Ma'naviy-ma'rifiy
tashkilotlar*

*Tibbiy
sog'lomlashtirish
tashkilotlari*

*Ilmiy-texnik
tashkilotlar*

*Ekologik
tashkilotlar*

*Ijtimoiy
jamg'armalar*

*Milliy madaniy
markazlar*

*Boshqa
turdagi
tashkilotlar*

Davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi

O`ZBEKISTON “KAMOLOT” YOSHLAR IJTIMOIIY HARAKATI

O`zbekiston yoshlarining ixtiyoriylik asosida vujudga kelgan, o`zini-o`zi boshqaradigan davlat notijorat tashkiloti. (2001 yil 25 aprelda tashkil topgan)

Maqsadi

O`zbekiston yoshlarini birlashtirish, sog`lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o`z aql-zakovati, kuch-g`ayratini to`la namoyon etishi, jamiyatda munosib o`rin egallashlari uchun sharoit-sharoitlar yaratib berish.

A`zosi

Irqi, jinsi, millati, tili, dini, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat`iy nazar, qoida tariqasida, 14 yoshdan 28 yoshgacha bo`lgan O`zbekiston fuqarolari a`zo bo`lishi mumkin

Harakatning negizi

Boshlang`ich tashkilotlar hisoblanib, ular yoshlarning o`qish, ish va xizmat joylarida tashkil etiladi.

Bolalar tashkiloti

Y E T A K C H I


Harakat tarkibida, uning homiyligida ishlaydi, 7 yoshdan 14 yoshgacha bo`lgan o`quvchilarni birlashtiradi.

Bir yilda bir marta o`tkaziladigan umumiy hisobot yig`ilishida ko`pchilik ovoz bilan saylanadi

V a z i f a s i

Bolalarning qalbi va ongiga harakatning asosiy maqsad-muddaolarini singdirish

O`ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI TIZIMI



SIYOSIY MADANIYAT, SIYOSIY ONG, MAFKURA

Siyosiy madaniyat: tushuncha va tuzilma

Siyosiy madaniyat – bu jamiyatning siyosiy hayotida vorislik asosida qayta ishlab chiqarishni ta'minlaydigan va siyosiy jarayon sub'ektlari faoliyatida bevosita paydo bo'ladigan, nisbatan qat'iy qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, e'tiqodlar, tasavvurlar, xulq-atvor modellarining tarixan tarkib topgan tizimidir.

Siyosiy madaniyat – insoniyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, ular fuqarolarning siyosiy bilimlari, baholashlari va hatti-harakatlarini umumiy belgilovchi xarakteri va darajasi bilan bog'langan ma'naviy sohaning elementlari (unsurlari)ni o'zida mujassamlashtiradi. SHu boisdan ham jamiyatning siyosiy madaniyati darajasiga qarab uning siyosiy etukligi haqida fikr yuritish mumkin.

Siyosiy madaniyatning xarakterli xususiyatlari:

1. Jamiyat tabiiy-tarixiy mahsuloti, jamoaviy siyosiy ijodning natijasidir;
2. Siyosiy jarayonning elementlari o'rtasida takrorlanadigan, qat'iy aloqalarni qayd etadi, siyosiy tajribaning barqaror tomonlarini mustahkamlaydi;
3. Konkret mamlakatning siyosiy hayotiga singib ketadi, yalpi xarakteriga ega bo'ladi;
4. Siyosiy sohaning yaqinlashuvini va yaxlitligini ta'minlaydi;
5. Butun jamiyatning hayot faoliyatini metodlar bilan muvofiqlashtiradi, davlat va shaxs, sinflar, turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini birga qo'shib boradi;
6. Hokimiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlarini me'yorlari, xulq-atvorning muayyan namunalari taklif etadi;
7. Asosiy xalq ommasining siyosiy ongi va siyosiy hatti-harakatini tavsiflaydi.

Siyosiy madaniyat tuzilmasi (strukturasi)ning element (unsur)lari:

- siyosiy ong o'z tarkibiga g'oyaviy komponentlar (siyosiy bilimlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, siyosiy tafakkur usullari)ni va psixologik (siyosiy hissiyot, emotsiyalar, kechinmalar, yo'nalishlar, kayfiyatlar) komponentlarini qamrab oladi;
- siyosiy xulq-atvor (siyosiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalar, ijtimoiy-siyosiy faoliyatning turlari, shakllari, stillari, namunalari);
- siyosiy tajriba (siyosiy an'analar, urf-odatlar, jamiyatning siyosiy xotirasi).

Siyosiy madaniyatning funktsiyalari:

1. Bilish (fuqarolarda zaruriy ijtimoiy-siyosiy bilimlarni, qarashlarni shakllantiradi, siyosiy savodxonlikni oshiradi) ;

2. Integrativ (jamiyat tomonidan tanlangan siyosiy tuzum va mavjud siyosiy tizim doirasida kelishuvga erishishga yordam beradi, muayyan ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun kuchlarni birlashtiradi) ;

3. Kommunikativ (siyosiy jarayon ishtirokchilari o`rtasidagi aloqani o`rnatishga, siyosiy madaniyat elementlarini avloddan avlodga o`tkazish va siyosiy tajribani to`plashga imkon beradi) ;

4. Regulyativ (ijtimoiy ongda zarur bo`lgan siyosiy qadriyatlarni, yo`l-yo`riq, ko`rsatmalarni, motivlarni, hatti-harakatning maqsadlari va me`yorlarini mustahkamlaydi) ;

5. Tarbiyaviy (fuqarolarning shakllanishiga, shaxsning siyosatni to`laqonli sub`ektiga aylanishiga imkon beradi, siyosiy ijtimoiylashuvga ko`maklashadi).

Siyosiy ong: tushuncha, tuzilma, funktsiyalar

Siyosiy ong – bu insonning davlat va jamiyatni boshqaruv ishlarida ishtiroki layoqatini belgilovchi, kishilarning amalga oshirilayotgan va istalgan siyosatga munosabatlarini ifodalovchi tasavvurlar va hissiyotlar, qarashlar va emotsiyalar, baholar va qo`rsatmalar yig`indisidir.

Siyosiy ong – bu ijtimoiy ongning asosiy shakllaridan biri bo`lib, u siyosiy hokimiyatning, davlatchilikning paydo bo`lishi bilan birga vujudga kelgan. Bu siyosatning sub`ektiv tomonini tavsiflovchi umumiy kategoriyadir. O`zining mazmuniga ko`ra, u fuqarolarning hissiy va nazariy, qimmatli va me`yoriy tasavvurlarini o`z ichiga qamrab oladi.

Siyosiy ong amaliyotdan (praktika) o`zib ketishga, siyosiy jarayonlar rivojlanishini prognoz (oldindan ayta olish)lashga, ham odamlarning, ham jamoat birlashmalarining hokimiyat sohasida faoliyati tabiatini aniqlashga qodirdir. SHuning uchun ham siyosiy jarayonning xarakteri va mazmuni, boshqaruv tartibotining maqsadi va vositalari to`g`ridan-to`g`ri siyosiy ongga bog`liq bo`ladi.

Siyosiy ongning mohiyati shu bilan belgilanadiki, bu kishilar manfaatlarini hisobga olgan holda, siyosiy reallikni ifodalash va o`zlashtirish jarayoni va bir vaqtda natijasi hamdir.

Siyosiy ongning funktsiyalari:

1. Regulyativ (g`oyalar, tasavvurlar, e`tiqodlar yordamida siyosiy ishtirok to`g`risida orientir (mo`ljall) lar beradi) ;

2. Baholash (konkret siyosiy voqealarga, siyosiy hayotga munosabatlarni ishlab chiqarishga imkon beradi) ;

3. Integratsiya (yaqinlashuv) (jamiyat ijtimoiy guruhlarini umumiy qadriyatlar, g'oyalar, ko'rsatmalar asosida birlashishiga ko'maklashadi) ;

4. Bilish, his etish (kishilarga siyosiy axborotlarni o'zlashtirishda, ularni qurshab olgan siyosiy voqelikni tahlil etishda yordam beradi) ;

5. Prognozlash (siyosiy jarayonlarning rivojlanish xarakteri va mazmunini oldindan bilish uchun asos yaratadi, kelajakdagi siyosiy munosabatlar to'g'risida axborot olishga imkon beradi) ;

6. Safarbarlik (kishilarni siyosiy yo'naltirilgan hatti-harakatga, o'zlarining manfaatlarini himoya qilish uchun ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishga, partiyada, harakatlarda, boshqa birlashmalarda o'z hamfikrlari bilan birlashishga safarbar etadi, undaydi).

Haqiqiy voqelikni chuqur ifodalashiga qarab siyosiy ongning quyidagi darajalari ajratib ko'rsatiladi: mafkuraviy va psixologik (ruhiy).

Siyosiy ong sub'ektlarga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- ommaviy (ommaning ijtimoiy fikri, kayfiyati, harakatini ifodalaydi);
- gruppaviy (guruh) (aniq sinf, qatlam, elitaning siyosiy hatti-harakatini yo'l-yo'riq va motivlarini umumlashtiradi);
- alohida, individual (shaxs tomonidan siyosatni bilish va unda ishtirok etishni ta'minlovchi informatsion, motivatsion va qimmatli komponentlar tizimidan iborat).

SIYOSIY MADANIYAT

Siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy jihatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarini shakllanishi, faoliyat ko'rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tashkil qilinish jarayonida katta va hal qiluvchi, ta'sir o'tkazuvchi omildir.

*Nemis faylasufi va ma'rifatparvari
I.Gerder*

*XVIII asrda "Siyosiy madaniyat"
iborasini ilmiy
muomalaga kiritgan*

*Amerikalik nazariyotchi
X.Fayer*

*"Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv
tizimi" asari. 1965 y.*

G.Almond S.Verba


*"Fuqarolik madaniyati" asari.
1963 y.*


*L.Pay
S.Verba*

*"Siyosiy madaniyat va siyosiy
taraqqiyot" asari. 1965 y.*

*Qadimgi mutafakkirlar Konfusiy,
Arastu, Aflotun, Abu Nasr Forobiy
Yusuf Xos Xojib, Makiavelli
asarlarida dastlabki siyosiy
madaniyat tushunchasi u yoki bu
darajada talqin qilingan*

*Hozirgi zamon politologiyasida
xalqaro tadqiqotchilardan
G.Almond, X.Fayer, S.Verba, A.Lipset,
M.Dyuverje, U.Rozenbaum,
G.Pauell, L.Pay "Siyosiy madaniyat"
mohiyatini ilmiy asarlarida
yoritib berganlar*





SIYOSIY MADANIYATNING KLASSIFIKATSIYASI

Ijtimoiylik darajasiga ko`ra

*Umumiy siyosiy
madaniyat*

*Aholi asosiy
ommasining
siyosiy ongi va
siyosiy xulq-
atvorini
tavsiflovchi
birmuncha qat`iy,
tipik belgilar*

*Sub
madaniyatlar*

*Jamiyatda hukmronlik
qilishiga qarab
farqlanuvchi
mintaqalar va muayyan
ijtimoiy guruhlar uchun
xarakterli bo`lgan,
siyosiy xulq- atvor
modellari va siyosiy
orientatsiya
(yo`nalish)larning
yig`indisidir*

Hokimiyatga munosabatiga ko`ra

Hukmron


*Kontr
madaniyat*

Ijtimoiy sinfiy

Milliy etnik


Diniy-siyosiy


Diniy




SIYOSIY ONG

Nazariy bilimlar, baholar, va hissiyotlarning tizimi bo'lib, ular orqali siyosat ijtimoiy sub'ekti sohalarini tan olish, bilish amalga oshiriladi (individlari, guruhlar, sinflar, birikmalar orqali)






SIYOSIY ONGNING TUZILISHI



SIYOSIY PSIXOLOGIYA

Ijtimoiy psixologiya shaklidagi munosabatlar va manfaatlarni ramkaga soluvchi va qayd etuvchi hamda siyosiy xulq-atvorining bevosita tarzlari va yo`l- yo`riqlarini sub`ektda ishlab chiqilishiga ko`maklashuvchi siyosiy ongning ajralmas tarkibiy qismidir



SIYOSIY IJTIMOIYLASHUV

Shaxsning siyosiy shakllanishi jarayoni, insonning siyosatga kirishi, uning hokimiyat bilan munosabatlarga tayvorlanishi va jalb etilishi

Jamiyat siyosiy tizimining, shuningdek, siyosat sub`ektlari sifatleri – shaxslarni takroriy ishlab chiqarish

Mohiyati

Mazmuni

A) *Bilimlarni individga berish, uning mavjud qadriyatlar, tajribalar, me`yorlarga qo`yilishi, ishtirok etishi*
B) *Individning faol harakati natijasida ijtimoiy munosabatlarning yanada taraqqiy etishi jarayoni*

Sub`ektlar, shartlar va omillar

Shaxs sifatining shakllanish jarayoniga bevosita ta`sir etuvchi tashqi ob`ektiv shartlar va omillar:

- *keng ijtimoiy muhit (siyosiy ong va jamiyat tashkilotlari)*
- *bevosita ijtimoiy muxit*
- *biogenetik xususiyat*
- *tabiiy-geografik sharoitlar*
- *individning ijtimoiy ahvoli*

Ijtimoiy-siyosiy institutlar:

- *Davlat;*
- *partiya va jamoat tashkilotlari;*
- *ishlab chiqarish muassasalari va o`quv yurtlari;*
- *ommaviy axborot vositalari.*

Siyosiy ong. Madaniyat.

Ijtimoiylashuv sub`ekti faolligi bilan bevosita bog`liq omillar:

- *ta`lim;*
- *tarbiya;*

Ijtimoiylashuv sub`ekti faolligi bilan bevosita bog`liq omillar:

- *ta`lim;*
- *tarbiya;*
- *o`z-o`zini tarbiyalash va o`z-o`zini o`qitish;*
- *shaxsning faoliyati*

SIYOSIY ONGNING NAZARIY VA EMPIRIK DARAJALARINING O`ZARO BOG`LIKLIGI VA ALOQADORLIGI

SIYOSIY MAFKURA

Siyosiy mafkura va siyosiy psixologiya-yagona yaxlitlikda mavjud bo`lgan ikki qarama-qarshilik, siyosiy ong turmushi va jamiyat siyosiy hayotini aks ettirishning ikki hayotiy, zaruriy o`zaro bog`liqlik shakllaridir

Siyosiy psixologiya siyosiy turmushning bilishning quyi, boshlangich darajasi sifatida tavsiflash, u siyosiy ongning kam ijtimoiy ahamiyatli qismi ekanligini anglashmaydi; uning o`ziga xosligi siyosiy jarayonlarning borishiga juz`iy ba`zan esa hal qiluvchi ta`sir etishga imkon beradi.

Siyosiy psixologiya siyosiy mafkura shakllanishining ob`ektiv sharti va asosi hisoblanadi; hech bir mafkura, agar ommaning siyosiy psixologiyasiga qarshi bo`lsa, omma tomonidan qabul qilinmaydi.

Siyosiy psixologiya siyosiy ongning eng harakatchan elementi hisoblanadi, omma o`zining harakatchanligiga qaramay, u nisbiy va konservativ, negaki u o`z davrini o`tab bo`lgan an`analar, urf-odatlarini saqlab qolishga qodir.

Siyosiy mafkura – siyosiy ongning eng qat`iy komponenti, odatda u siyosiy psixologiya mazmunini ratsionalizatsiya qiladi va partiya, davlat amaliy faoliyatining asosiy yo`nalishini belqilaydi

SIYOSIY MAFKURA

Hokimiyat, uni egallash, himoyalash va foydalanish yuzasidan turli ijtimoiy guruhlarning tub manfaatlarini ifodalovchi, g'oyaviy qarashlarning yig'indisi, siyosiy ongning yadrosi bo'lib, uning asosida siyosiy munosabatlar qaror topadi va tegishli institutlar, tashkilotlar va muassasalar amal qiladi

Amalga oshirish darajalari

Nazariy-konseptual

Davlatlar, millatlar, ijtimoiy guruhlarning ideallari va manfaatlarini ochib beruvchi asosiy qoidalar shakllanadi.

Dasturiy-siyosiy

Siyosiy qarorlar qabul qilish uchun g'oyaviy-siyosiy asos bo'ladigan dasturlar, manfaatlar, shiorlar ishlab chiqiladi

Dolzarblashgan

Fuqarolar tomonidan mafkuraning maqsad va qoidalarini o'zlashtirish darajasi bilan va siyosiy ishtirokning turli ishlarida ularni amalga oshirishda o'z xarakteri bilan aniqlanadi.

Namoyon bo'lish shakllari

Siyosiy nazariyalar

Siyosiy konsepsiyalar

Siyosiy g'oyalar

Ijtimoiy-siyosiy ideallar

Siyosiy prinsiplar

Siyosiy shiorlar

Siyosiy qarashlar

Asosiy vazifalar

Ta'limiy-tarbiyaviy

Ommaviy siyosiy ongni egallash, kishilar siyosiy maydonda intilishlari lozim bo'lgan muayyan maqsad va vazifalarni, jamiyatning hozirgi va kelajakdagi rivojini baholash mezonlarini unga tadqiq etish


Integratsiya-lashtiruvchi

Jamiyatni qandaydir ijtimoiy yoki milliy guruhlarning manfaatlarini negizida yoki aholining aniq guruhiga tayanmagan, ongli shakllan tirilgan maqsadlar tizimida jipslashtirish

Targ'ibotchilik


O'tkazilayotgan siyosiy yo'lning ijobiy timsolini yaratish, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatlariga mos kelishi


IJTIMOIIY-SIYOSIY HARAKATLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI




DIN


DINNING TUZILISHI







SIYOSAT VA DINNING BIR-BIRIGA TA`SIR KO`RSATISH DIALEKTIKASI



SIYOSIY ELITA, SIYOSIY LIDER

Siyosiy etakchi (lider)lik

Siyosiy etakchilik – bu siyosiy faoliyatning ko`rinishi bo`lib, siyosiy jarayonlarning muvoffaqiyati va ko`zlangan maqsadini aniqlash uchun muhim ahamiyatga egadir. U o`zida siyosatning eng muhim asosli xislatlarini birlashtiradi: g`okimiyat, avtoritet (obro`), rahbarlik, ijtimoiy manfaatlarning ifodasi va vakilligi. Bu hodisaning ma`nosi siyosat sohasida obro`li rahbarlikni amalga oshirish bilan izohlanadi

Kishilar tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinadigan, ularga qo`llaniladigan hokimiyat obro`li, nufuzli hokimiyat hisoblanadi. Ular mazkur hokimiyatga bo`ysunadi, rozi bo`ladi, o`zlarining siyosiy vakolatlarini, huquqlarini boshqa shaxsga yoki institutga berilishini o`zlari uchun foydaliligini ko`ra oladilar. Etakchi esa, o`z navbatida bu huquq va vositalardan ularni kim egallagan bo`lsa, shular farovonligi yo`lida foydalanish majburiyatini oladi.

Siyosiy etakchilik fenomeni asosida – rahbarning layoqati, o`z izdoshlari manfaatlarini aks ettiruvchi va qondiruvchi shaxslar ham, tashkilotlar ham, bu o`rinda chiqishi mumkin. SHu bilan lider o`z izdoshlari manfaatlariga qarama-qarshi harakat qiluvchi rahbarning boshqacha tipi bo`lgan manipulyatordan farq qiladi.

Siyosiy lider (etakchi) ning yana bir muhim funktsiyasi – maqsadga yo`naltirilgan va muvaffaqiyatli rahbarlikni amalga oshirish. U siyosiy hatti-harakat resurslari va mavjud imkoniyatlar va maqsadlarni to`g`ri baholay olishi hamda nisbat bera olish layoqatini nazarda tutadi. Agarda ushbu sifat liderda mavjud bo`lmasa, unda rahbarlik muvaffaqiyatli bo`lmaydi, o`z izdoshlarining manfaatlarini himoya qilish vazifasi quruq deklaratsiyaga aylanib qoladi.

Siyosiy etakchilik (liderlik) – bu kishilar o`rtasidagi o`zaro harakatlar jarayoni bo`lib, uning amalga oshishiga birovlar o`z izbosarlari manfaatlar va ehtiyojlarini biladilar, hamda ifoda etadilar va shuning orqasida nufuzga ega bo`ladilar hamda ta`sir qila oladilar, boshqalar esa – o`zlarining siyosiy, hokimiyat vakolatlari va huquqlarining bir qismini ixtiyoriy ravishda ularga beradilar.

Siyosiy etakchilikda bu ikki o`zaro yo`naltirilgan oqimlarning qo`shilishi natijasida siyosiy faoliyat va siyosat uchun favqulodda muhim bo`lgan siyosiy jarayonlar barcha qatnashchilarini o`zaro safarbar etish yuz beradi: rahbarlarni, chunki ular biladilarki, ularning harakati ommaningqo`llab-quvvatlashi va maqullashiga tayanadi hamda o`zlarining kuchlariga ishonadilar; siyosiy jarayon

yoki harakatning oddiy ishtirokchilari, zero ular his qiladilarki, ularning manfaatlari tushunarli, maqsadlari esa, shakllangan. Buning kuchi bilan jamiyat siyosiy hayoti sezilarli darajada intensivlashadi, u to'laroq va natijaliroq bo'ladi.

Siyosiy elita tushunchasi

“Elita” termini lotinchadan olingan bo'lib, “yaxshiroq”, “tanlangan”, “saylangan” degan ma'nolarni anglatadi.

Siyosiy elita – bu kishilarning nisbatan oz sonli qatlami (o'ziga xos boshqaruvchi sinf) bo'lib, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, davlat hokimiyati organlarida rahbarlik mansablarini egallaydi va mamlakatda siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga ta'sir etadi.

Siyosiy elita jamiyatning hokimiyatni boshqaruvchi qismi, hukmron qatlamidir. Mazkur tushunchaga ko'ra, jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan, faoliyatning siyosiy va boshqa sohalarida faollikka ega bo'lgan, obro', nufuz, ta'sir va boylik egasi bo'lgan kishilar guruhi ko'zda tutiladi. Asosan, bular hokimiyat funktsiyalari va vakolatlarini bo'lib olgan, oliy toifadagi professional siyosatchilar. SHuningdek, bu jamiyat taraqqiyoti strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga, siyosiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashishga tayyorlangan oliy davlat xizmatchilaridir.

Siyosiy elitaning mavjudligi quyidagi omillar bilan bog'liqdir:

- kishilarning ijtimoiy va ruhiy holatlari, ularning bir xil bo'lmagan layoqatlari, imkoniyatlari va siyosatda ishtirok etish istaklari;
- boshqaruv bilan professional mashg'ul bo'lishni, muayyan ixtisoslashuvni talab qiluvchi mehnatning qonuniy taqsimlanishi;
- boshqaruv va uning tegishli rag'batlanishining yuqori ijtimoiy ahamiyatliligi;
- ijtimoiy imtiyozlar olish uchun boshqaruv faoliyatidan foydalanishning keng imkoniyatlari;
- amaliy jihatdan siyosiy rahbarlar faoliyati ustidan keng qamrovli nazoratni amalga oshirish imkoniyati yo'qligi;
- odatda, asosiy manfaatlari siyosatdan tashqarida bo'lgan keng xalq ommasining siyosiy passivligi (V.Pugachev, A.Solovyev).

Siyosiy elita, bu shunchaki tasodifiy kuchlar orqali hokimiyatni bo'lib olgan shaxslar yig'indisi emas, balki “tabiiy tanlanish” natijasida shakllangan ijtimoiy guruh, o'zining muayyan layoqatlariga, kasbiy bilimlariga, ko'rinmalariga, malakalariga ega bo'lgan kishilar qatlamidir.

SHuning uchun ham siyosiy elita davlat boshqaruvining markaziy zvenosi hisoblanadi, siyosiy tizimning amal qilishi, jamiyat siyosiy taraqqiyotining borishi va yo`nalishi ma`lum darajada uning faoliyatiga bog`liqdir.

Siyosiy elitaning funktsiyalari:

- strategik (jamiyat, sinflar, qatlamlar manfaatlarini ifodalaydigan yangi g`oyalarni o`rganish orqali harakatning siyosiy dasturini aniqlash) ;
- tashkilotchilik (ishlab chiqilgan kursni praktika (amaliyotda) ro`yobga chiqarish, siyosiy qarorlarni hayotda gavdalantirish) ;
- integratsiya (yaqinlashtiruvchi) (jamiyat barqarorligi va birligini , uning siyosiy va iqtisodiy tizimi barqarorligini mustahkamlash, ziddiyatli vaziyatlarga yo`l qo`ymaslik va ularni hal etish).

Siyosiy elita quyidagilarga bo`linadi: hukmron (bevosita davlat hokimiyatini egallaydi), muxolif (kontr elita), oliy (butun jamiyat uchun muhim bo`lgan qarorlarni qabul qiladi).

SIYOSIY YETAKCHI (LIDER)

Jamiyat guruh, tashkilotning obro'li a'zosi, uning shaxsiy ta'siri unga siyosiy jarayonlar va vaziyatlarda salmoqli rol o'ynashi uchun imkon yaratadi.

Tavsifiy jihatlari

Katta ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga javob beruvchi aniq siyosiy dasturning mavjudligi.

Kishilarga yoqishni bilish, ommaboplik, ularning obro'-e'tiborini qozonish.

Siyosiy xohish- iroda, mas'uliyatni o'ziga olishga tayyorlik.

O'tkir aql va siyosiy idrok.

Tashkilotchilik talanti va notiqlik layoqati.

Asosiy vazifalar

Jamiyatning integratsiyallashuvi, xalq ommasining birlashuvi.

Optimal siyosiy qarorlarning qabul qilinishi.

Ijtimoiy hokimlik va patronaj, ommani qonunsizlikdan, byurokratiyaning o'zboshimchaligidan himoyalash, jamiyatda tartibni saqlash.


Hokimiyat va ommaning aloqasini bog'lash, fuqarolarni siyosiy rahbariyatdan begonalashuvining oldini olish.


Yangilanishni namoyish etish, ko'tarinkilikni va ijtimoiy kuch-qudratini qo'llash, ommani siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etish.

Siyosiy tizimni e'tirof etish.

SIYOSIY YETAKCHI (LIDER)LAR KLASSIFIKATSIYASI


A s o s l a r







SIYOSIY ELITA

Siyosiy hokimiyatni katta hajmda o'z qo'lida markazlashtirgan, siyosiy hatti-harakatlarni yuzaga chiqarish mexanizmini tashkil etuvchi va jamiyatning turli qatlamlari siyosiy manfaatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi, integratsiyani, muvozanatni ta'minlovchi, unchalik katta bo'lmagan ijtimoiy guruh






SIYOSIY ELITANING FUNKSIYALARI



SIYOSIY ELITANING KLASSIFIKATSIYASI



Kompetentsiya - 1) omilkorlik, xabardorlik;
2) huquq doirasi;
3) to`la huquqli.

SIYOSIY ELITANING TANLANISHI

Gildiy tizimi

Yopiqlik (odatda, elitaning o'zidan pastki qatlamdagilardan yanada yuqori lavozimlarga da'vogarlarni tanlashi).

Saralash jarayonining yuqori darajada institutsiyalashuvi, yuqori lavozimni egallash uchun ko'p sonli rasmiy talablarning mavjudligi.

Elektoratning unchalik katta bo'lmagan doirasi (odatda, yuqori turuvchi rahbar organ a'zolari yoki birinchi turuvchi rahbar).

Mavjud bo'lmagan etakchi tipini qayta etishtirish tendensiyasi (da'vogarlardan eng avvalo, yetakchiga ishonch talab etiladi).

Antreprenyer tizimi

Ochiqlik (har qanday ijtimoiy guruh vakillari uchun siyosiy-boshqaruv tuzilmasidagi o'ringa da'vogarlik qilish uchun keng imkoniyat).

Lavozimga da'vogarlarga unchalik ko'p bo'lmagan rasmiy talablar.

Mamlakatning barcha saylovchilari qo'llaydigan elektoratning keng doirasi.

Saralashning yuqori raqobati.

Shaxsiy sifatlarning birinchi darajadaligi.

TASHQI SIYOSAT, JAHON SIYOSATI, SIYOSIY VAZIYAT

Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati

Xalqaro munosabatlar – bu davlatlararo, millatlararo aloqa qilish sohasidir. Davlatlar va xalqlarning oʻzaro harakatida, bu sohada oʻz manfaatlarini amalga oshirishida turli xil munosabatlar shakllanadi: diplomatik, iqtisodiy, ijtimoiy (ularning subʼekti boʻlib davlat emas, balki turli xil no hukumat tashkilotlari xizmat qiladi), madaniy, informatsion (axborot) va b.

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy tendentsiyalari:

- ijtimoiy hayotning barcha sohalarini amalda *internatsionallashtirish* (baynalmilallashuv). U xalqaro ayirboshlash va oʻzaro aloqalarning, kishilar oʻrtasidagi aloqalarning oʻsishida ifodalanadi, iqtisodiyotda, taʼlimda, madaniyatda, fanda sogʻliqni saqlashda, inson huquqlarini himoya qilishda va uning barcha sohalarini xavfsizligini taʼminlanlashda oʻzaro bogʻliqlik boʻlishini taqozo etadi;


- *global muammolarni shakllanishi*, ularning hal qilinishi faqatgina er yuzida yashovchi barcha xalqlarning muvoffaqiyatli oʻzaro harakati va hamkorligi natijasidagina boʻlishi mumkin. Bundaylarga tinchlikni saqlash, harbiy xavfni minimallashtirish, atrof-muhitni saqlash, yuqumli kasalliklar va jinoyatchilik bilan kurash muammolarini kiritish mumkin;

- *demilitarizatsiya (qurolsizlanish) va demokratizatsiya* – harbiy siyosiy sohalarda yuzaga kelgan muammolarni hal etishda asta-sekin harbiy kuch ishlatish metodlaridan voz kecha borish (bunday metodlarning kam samaraligi va oʻta xavfsizligi borgan sari tobora yaqqolroq boʻlib koʻzga tashlanmoqda), shuningdek katta yoki kichikligidan qatʼiy nazar bu munosabatlarda ishtirok etuvchilarning barchasini huquqlarini hurmat qilish;


- *jahon siyosati* – bu xalqaro munosabatlar tizimning bir qismi boʻlib, xalqaro munosabatlar sohasida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda davlatlarning oʻz manfaatlarini hokimiyatchilik yoʻli bilan taʼminlashdagi faoliyatidir. Hozirgi zamon hukmron dunyo siyosati xavfsizlikni uning turli xil aspektlarida: harbiy, ekologik, huquqiy, texnologik, axborot kabi sohalarda qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

TASHQI SIYOSAT

Davlat va jamiyatning boshqa siyosiy institutlarini xalqaro maydonda o'z manfaatlari va talablarini amalga oshirish bo'yicha faoliyati.



DAVLAT TASHQI SIYOSATINIG SHAKLLANISHI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI



JAHON SIYOSATI

Xalqaro huquq asosiy sub`ektlari siyosiy faoliyati yig`indisi. BMT va xalqaro jamiyatning boshqa qonuniy organlari va muassasalari faoliyatida ifodalangan, integratsiyalashgan manfaat

Struktura

Suveren, mustaqil milliy davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati

Mintaqaviy, davlatlararo va ijtimoiy strukturalar, ittifoqlar, guruhlar va boshqa birlashmalarning siyosiy aksiyalari

Davlatlar va xalqlar tomonidan vakolatga ega bo`lgan BMT va boshqa tashkilot va muassasalarning umumbashariyat darajasidagi faolivati

Bosh ustuvorliklar

Urush va tinchlik


Yalpi xavfsizlik

Atrof-muhitni qo`riqlash

Qoloqlik va qashshoqlikni bartaraf etish


XALQARO MUNOSABATLAR

Xalqaro maydonda xalqlar, davlatlar iqtisodiy, siyosiy tashkilotlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, harbiy va boshqa aloqalari hamda o`zaro munosabatlari yig`indisi.



SIYOSIY VAZIYAT

Ijtimoiy-siyosiy kuchlarning joylashuvini va muvozanatini, shuningdek, siyosat sub`ektlarini ehtiyojlarini qondirish, siyosiy maqsadlariga erishish bilan bevosita bog`liq bo`lgan siyosiy munosabatlar holatini ifodalovchi omillar va shartlarning o`zaro harakati natijasi va yig`indisi



ICHKI SIYOSIY VAZIYAT TAHLILI USLUBIYOTI

- 1 *Siyosiy munosabatlar sub`ektlarini aniqlash*
- 2 *Siyosat sub`ektlari sifat va miqdoriy tarkibining tahlili*
- 3 *Siyosat sub`ektlari maqsadlari va manfaatlari tahlili*
- 4 *Jamiyat hayotining turli sohalarida real jarayonlar va hodisalarni tahlili, ular rivojlanishining tendentsiyalarini ochib berish:*
 - *Iqtisodiyot ahvolining tahlili;*
 - *Ijtimoiy-sinfiy va milliy munosabatlarning tahlili;*
 - *Ijtimoiy ong, madaniy hayotning tahlili;*
 - *Mamlakatdagi kriminal vaziyatning tahlili;*
 - *Ichki harbiy – siyosiy vaziyatning tahlili;*
 - *Siyosiy hokimiyat legitimligining tahlili.*
- 5 *Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning bahosi*
- 6 *Siyosiy vaziyat rivojining prognozi (istiqboli)*

XALQARO (MINTAQAVIY) SIYOSIY VAZIYAT TAHLILINING USLUBIYOTI

- ① *Dunyoda(mintaqada) kuchlar qutblarini aniqlash*
- ② *Qutblardagi kuchlar markazlarini aniqlash*
- ③ *Kuchlar markazlarining iqtisodiy qudratini tahlili*
- ④ *Kuchlar markazlari harbiy potentsialining tahlili va bahosi*
- ⑤ *Kuchlar markazlarida ichki siyosiy vaziyatning tahlili va bahosi*
- ⑥ *Xalqaro (mintaqaviy) siyosiy vaziyatning bahosi*
- ⑦ *Xalqaro (mintaqaviy) siyosiy vaziyatning rivojlanishini oldindan aytishni ishlab chiqish*

HOZIRGI ZAMONNING UMUMBASHARIY MUAMMOLARI

Hal qilinishi insoniyatning bundan keyingi ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim muammolar yig'indisi

Ajratilish mezonlari

Butun insoniyatning barcha davlatlar va ularning guruhlar, har bir insonning u yoki bu darajadagi xayotiy manfaatlari.

O'tkir xarakter kasb qiladi, insoniyatning pozitiv (ijobiy) taraqqiyotiga xavf soladi, hatto halokatga olib keladi.

O'zining hal etilishi uchun barcha davlatlar va xalqlar jamoatchilik kuchlarini talab etadi.

Asosiy guruhlar

Xalqaro munosabatlarning sohalari bilan bog'liq

Tinchlikni saqlash muammmosi

Ko'plab ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiy qoqligini bartaraf etish

Jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq

Ochlik va to'qlik bilan kurashish

Sog'likni saqlash, maorifning muhim masalalarini hal etish

Insoniyat istiqomat qilayotgan ma'naviy muhitni «ifloslanish»dan himoyalash.

Inson va tabiatning o'zaro harakati bilan bog'liq.

Ekologik

Energetik

Xom-ashyo, oziq- ovqat

Demografik

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATI

Davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo`l bilan hal etish boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume`tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Tashqi ishlar
vazirligi

O`zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining strategiyasi, uning tashqi siyosiy manfaatlarini himoya qilish va ro`yobga chiqarish masalalari, davlat xalqaro faoliyatining umumiy muammolari bo`yicha takliflar ishlab chiqadi.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasida davlat idoralarining ishini o`z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi

O`zbekiston Respublikasining milliy davlat manfaatlarini, uning chet ellardagi fuqarolari huquqlarini himoya qilishni ta`minlaydi

Respublika hududida xorijiy vakolatxonalar va xalqaro tashkilotlarning diplomatik hamda konsullik dahlsizligiga rioya etish uchun shart-sharoit yaratadi.

Tashqi siyosatning ustuvor yo`nalishi

Iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va uning ko`lamini kengaytirish


Xorijiy sarmoyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish.

Mintaqada va dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash.


Belgilangan tartibda muzokaralar olib boradi


Shartnoma va bitimlar tuzadi

Takliflar tayyorlaydi










O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QATNASHAYOTGAN MINTAQAVIY HAMKORLIK TASHKILOTLARI



MILLATLARARO MUNOSABATLAR, MILLIY SIYOSAT

MILLIY MASALA

Milliy masala deganda turli millat va elatlarning o`zaro munosabatlarida zarur ehtiyojlarni qondirishga to`sqinlik qiluvchi holatlarning yuzaga kelishi tushuniladi. Ular ko`p millatlar yashaydigan mamlakatlarda u yoki bu millatlarning manfaatlarini hisobga olmaslik holatlaridan kelib chiqadi

Tuzilishi

→ *Milliy tengsizlik munosabatlari, millatlarni imtiyozli va to`la bo`lmagan huquqli, buyuk davlatchilik va ezilgan millatlarga bo`linishi munosabati bilan vujudga kelgan muammolar*

→ *Turli xil millatlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining tengsizligi darajasi bilan bog`liq muammolar*

→ *Milliy negizdagi dushmanlik va shubhalanish, milliy zulm, milliy ixtiloflarga asoslangan muammolar.*

Hal qilish prinsiplari

→ *Millatlarning o`z taqdirini o`zi belgilash huquqi va milliy manfaatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan demokratizm*

→ *Real milliy vaziyatni hisobga olib, tomonlarning kompromiss va muloqotga kelishi*

→ *Barcha millat va xalqlarning soni va taraqqiyot darajasidan qat`iy nazar tengligi*

→ *Ayrim shaxsning huquqi va erkinliklari va millatlarning huquqi va erkinliklari o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik.*

→ *Milliy muammolarni hal etishga tor sinfiylik bilan yondashuvdan voz kechish*

→ *Millatchilik, shovinizm, ayirmachilikning har qanday ko`rinishiga murosasizlik*

→ *Xalqlar tarixiy taqdirLARining birligi, davlatlar yaxlitligining ta`minlanganligi*

MILLATLARNING O`Z TAQDIRINI O`ZI BELGILASH HUQUQI

Anglatadi

*Ajralib chiqishgacha va
mustaqil davlat tashkil
etishgacha bo`lgan,
davlat tuzilishini xalq
tomonidan erkin tan
olinishi*

*Taraqqiyotining
iqtisodiy, siyosiy,
ijtimoiy-madaniy va
boshqa masalalarni hal
qilishda mustaqillik*

*Davlatchilikning
institutlarini va
ramzlarini tanlash
erkinligi*

*Xalqlarning bir
davlatga
birlashuvining
ixtiyoriyligi*

Amalga oshirish shakllari

Ajraluvchilik


*Milliy
davlatchilikni
belgilash asosida
xalqning xohish
irodasi ta`siri ostida
millatning ko`p
millatli davlat
birlashmasi tarkibidan
chiqishi*

Qo`shiluvchilik

*Unitar davlat
sharoitlarida bir xalq
(millat)ning boshqa
xalqlar bilan federativ
asosda yagona
davlatga
birlashuvi*


MILLATLARARO MOJARO


O'z milliy manfaatlarini himoya etish uchun tashkil etilgan o'zaro raqobatlashuvchi, boshqa millatlar tuzilmalari ijtimoiy siyosiy qarama-qarshiliklari holatining eng so'nggi shakli



MILLATLARARO MOJAROLARNING TIPOLOGIYASI

Sinflashtirish uchun asoslar





MILLIY SIYOSAT

Bu davlatning huquqiy aktlarida va tegishli siyosiy hujjatlarda mustahkamlangan, siyosat sub`ektlarining millatlar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir

Milliy siyosatning yadrosi

Har bir xalqning o`z taqdirini o`zi belgilashini tabiiy amalga oshirishni ta`minlay olishi, erkin, munosib ravishda yashashi, uning o`ziga xosligini, tilini, madaniyatini, an`analarini, jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilgan jihatlarni saqlab qolish, milliy manfaatlarni kelishtirish san`ati

Federativ davlat milliy siyosatining asosiy yo`nalishlari

Federativ davlat tarkibiga kiruvchi millat va elatlarning milliy davlat tuzilishini takomillashtirish

Federativ davlat sub`ektlari o`rtasidagi xo`jalik aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish


Millatidan qat`iy nazar fuqarolarning huquq va erkinliklarini tengligini ta`minlash

Milliy madaniyatlarni, tillarni va an`analarni erkin rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish

Mojaroli vaziyatlarni tinch usullar bilan hal etish va millatlararo muloqotning tsivilizatsiyali shakllarini shakllantirish

Mamlakatdagi milliy jarayonlarni boshqarish va ilmiy rahbarlik qilish mexanizmini takomillashtirish

MILLATLARARO ZIDDIYATLARNING OLDINI OLISH VA HAL ETISHNING USULLARI



SIYOSIY KONFLIKT (MOJARO)

SIYOSIY KONFLIKT (MOJARO)

Muayyan bir-birini istisno etuvchi siyosiy manfaatlar va maqsadlar negizidagi qarama-qarshi ijtimoiy kuchlarning to'qnashuvi

Shakllanish darajalari

Shaxslararo darajadagi konfliktlar

Guruhlar darajasidagi konfliktlar

Jamiyat tizimidagi tizimlar darajasidagi konfliktlar

Mintaqaviy va umumbashariy darajadagi konfliktlar

Asosiy funksiyalar

Barqarorlashtiruvchi rolni bajaradi

Qarama-qarshiliklarni xal etishga va jamiyatni yangilashga ko'maklashadi

Qadriyatlarni oshirib baholashni rag'batlantiradi

Yangi tuzilmalarni qaror topish momentini tezlashtiradi


Uning ishtirokchilarining yaxshiroq bilishini ta'minlaydi

Jamiyatni beqarorlashishiga va uzoqlashishiga (dizintegratsiya) olib kelishi mumkin

Moddiy qadriyatlarning tugatishga va kishilarning halok bo'lishiga olib keladi

Jamoatchilik munosabatlarida nomaqbul o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

SIYOSIY KONFLIKT (MOJARO)



SIYOSIY KONFLIKT (MOJARO) NI HAL ETISH SHARTLARI

Konflikt (mojaro) ni ochish

Konflikt (mojaro) ni tahlil etish

Hal etish usullari va yo'llarini izlash

Konflikt (mojaro) ning manbasini neytrallashtirish (tugatish) bo'yicha faol, izchil, maqsadga yo'naltirilgan harakatlar

Asosiy sabab bartaraf etildi - ya'ni konfliktga olib keladigan ijtimoiy qarama-qarshiliklar bartaraf etiladi

Ilgari dushmanlik qiluvchi tomonlar o'zaro ishonch asosida hamkorlik qilish yo'lini tutadilar

O'zaro munosabatlarda tomonlar barqarorlik bilan erishilgan kelishuv me'yorlarini bajaradilar

***Konfliktni to'la
bartaraf etilgan, hal
bo'lgan deyish
mumkin, agar:***

